

НамМПИ қошидаги Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг динамик Веб сайтини яратиш

Мундарижа

Кириш	2
1-боб. Веб-сайтларни яратиш бўйича мавжуд манбалар ва уларнинг таҳлили	4
1.1. Ўзбекистонда сайтлар яратиш ҳолати ва миллий қонунчиликда ахборот хавфсизлиги	4
1.2. Веб сайт яратиш бўйича асосий тушунчалар.....	6
1.3. Мауммонинг қўйилиши ва унинг амалий аҳамияти	12
2-боб. Малака ошириш ва қайта тайёрлаш маркази сайтини яратиш бўйича бошланғич маълумотларни шакллантириш ва структура ишлаб чиқиш	13
2.1. Веб сайтларни яратиш воситалари ва сайтларга қўйиладиган талаблар	13
2.2. Динамик сайтларни яратишда CSSларни қўллаш ва уларнинг имкониятларининг шарҳи	15
2.3. “Динамик сайтларни яратиш дастурий воситалари. WordPress дастури” мавзуси бўйича амалий дарс сценарийсини ишлаб чиқиш.....	18
3-боб. Малака ошириш маркази динамик Веб сайтини яратиш	24
3.1. Малака ошириш маркази сайти учун асосий маълумотларни шакллантириш.....	24
3.2. WEB сайтни яратиш бўйича алгоритм ишлаб чиқиш ва яратиш технологияси	27
3.3. Яратилган сайтдан фойдаланиш бўйича йўриқнома ишлаб чиқиш	30
4-боб. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги	31
4.1. CMSлар ёрдамида Web динамик сайтларни яратишда техника хавфсизлиги қоидалари	31
4.2. Амалий машғулот дарсларида компьютерлардан фойдаланиш қоидалари	33
Хулоса	35
Фойдаланилган адабиётлар рўйхати	36
Илова	36

Кириш

Маълумки, бугунги кунга қадар ахборотлаштириш ва дастурий маҳсулотлар ишлаб чиқиш бўйича бўйича қўллаб қарор ва низомлар ишлаб чиқилди. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг «Ахборотлаштириш тўғрисида»ги қонуни (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2004 й., 1-2-сон, 10-модда) ва Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 20 сентябрдаги ПҚ-2042-сон «Мамлакатимизнинг дастурий таъминот воситалари ишлаб чиқувчиларини рағбатлантиришни янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 39-сон, 508-модда), Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 19 декабрдаги 355-сон «Ўзбекистон Республикаси Алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари давлат қўмитаси ҳамда Алоқа, ахборотлаштириш ва телекоммуникация технологиялари соҳасида назорат бўйича давлат инспекцияси тўғрисидаги низомларни тасдиқлаш ҳақида»ги қарори (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 52-сон, 589-модда) ҳамда Замонавий ахборот-коммуникация технологияларини янада жорий этиш ва ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида (ПҚ-1730-сон (21.03.2012 й.))ли фармони ишлаб чиқилди.

Шунингдек, давлатимиз раҳбари Ш.М.Мирзиёев ташаббуслари билан халқ муҳокамасидан ўтказилиб, 7 февраль кунги фармон билан 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини тасдиқланди. Стратегия лойиҳаси долзарб ҳамда аҳоли ва тадбиркорларни ташвишга солаётган масалаларни комплекс ўрганиш, қонунчилик, ҳуқуқни муҳофаза қилиш амалиёти ва хорижий тажрибани таҳлил қилиш якунлари бўйича ишлаб чиқилди.

Ушбу келтириб ўтилган стратегияда ҳам таълимга, иқтидорли авлод билан ишлаш, ижтимоий соҳага алоҳида аҳамият берилган.

Республикамызда олиб борилаётган ислохотларнинг тақдирида юқори малакали мутахассисларнинг роли бениҳоя каттадир. Республикамызнинг биринчи президенти таъкидлаганларидек: «Эрганги кун янгича фикрлай оладиган, замонавий билимга эга бўлган юксак малакали мутахассисларни талаб этади». Шу сабабли халқимизнинг бой интеллектуал мероси ва умумбашарий қадриятлари, замонавий маданият, иқтисодиёт, фан, техника ва технологиялар асосида етук мутахассислар тайёрлаш тизими ишлаб чиқилди ва жадал суръатлар билан ҳаётга татбиқ этилмоқда.

Ҳозирги кунда таълим тизимида янги босқич бўлган касб-хунар таълимини зарур меъёрий ҳужжатлар, замонавий техника ва технологиялар билан таъминлаш, шунингдек электрон маълумотлар базасини бойитиш, интернет тармоғи учун динамик сайтларни яратиш борасида бир қатор ишлар амалга оширилди ва амалга оширилмоқда.

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори билан «Ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандарти» тасдиқланди. Уларда кўрсатиб ўтилганидек, ўрта-махсус касб-хунар таълими муассасаларининг битирувчиларига кўйиладиган фундаментал фанлар ва аниқ касб соҳаси доирасида назарий ва амалий билимларга эга бўлиш, компьютер ва телекоммуникация воситаларидан фойдалана олиш, ўқув фанлари бўйича олий таълим муассасаларида таҳсил олиш учун зарур бўлган билимлар мажмуасига эга бўлиш вазифаси кўйилган.

Айниқса, касб-хунар коллежларида ўқувчиларнинг билимларини янада оширишлари учун фан ўқитувчиларининг малакаларини ошириш ва қайта тайёрлаш тизимида жуда катта ўзгаришларни ва такомиллаштириш ишларини амалга оширилмоқда.

Биз кўриб ўтмоқчи ва ҳал қилмоқчи бўлган масаланинг асосий мақсади ҳам Малака ошириш маркази динамик Веб сайтини яратиш асосида олий таълим муассасаларининг ички интернет сайти учун янги бир ахборот манбаини яратиш ва ундан касб-хунар коллежлари, қолаверса, мустақил ўрганишни хоҳловчи ўқувчилар учун манбаларни яратишдан иборат.

Ўқув фанининг долзарблиги ва зарурлиги шундан иборатки, ўқувчилар фанни ўзлаштириш давомида профессионал даражадаги билимларни ўзлаштириш, AdobePremierePro, PinnacleStudio, MovieMaker, Web Builder, Joomla, Drupal, DataLife engine, WordPress каби мултимедияли ва турли хил саҳифа ва сайтларни яратиш дастурий таъминотлар ва мултимедиа қурилмалари билан ишлаш имкониятига эга бўладилар.

Мултимедиа тизимлари йўналиши мутахассисликлари учун бундай дастурлар билан ишлаш жуда муҳим ҳисобланади. Бундай дастурий воситаларни яхши билган мутахассис ўз ғояларини илгари суриш, ўз лойиҳаларини ишлаб чиқиш, турли анимасион тақдимотларни ишлаб чиқиш ва тушунтириш учун жуда яхши имкониятларга эга бўлади.

Фанни ўрганиш жараёнида ўқувчилар куйидаги билимларни эгаллашлари лозим:

- мултимедиа тизими таркиби;
- мултимедиа тизими техник таъминоти;
- видеоқурилма турлари;
- рақамли видеоахборотни қайта ишлаш усуллари;
- видео монтаж қоидалари.

Ушбу соҳадаги муаммолар ва мазкур ишнинг зарурати. Битирув малакавий иши мавзусида келтирилган муаммо замирида касб-ҳунар коллежи ўқитувчиларининг мултимедиа тизимлари кичик мутахассисларини тайёрлаш бўйича давлат таълим стандарти асосида ўқитиладиган мутахассислик фани мустақил таълимидаги сайтлар яратиш дастурлари ва имкониятларини ўрганишда малака ошириш тизимида ҳам НамМПИ қошидаги малака ошириш марказининг интернет тармоғи учун сайтини яратиш ва бу дастур имкониятларини янада кенгрок очиб бериш масаласи ётади. Ушбу муаммони ҳал қилиш орқали малака ошириш маркази фаолиятига оид маълумотларни интернет тармоғида ёритиб бориш, ҳалқаро алоқаларни ривожлантириш, ўзаро маълумотлар алмашинувида янги имкониятларни очиб бериш назарда тутилади. Бугунги кунда бундай интернет тармоғи учун НамМПИ Малака ошириш маркази Web сайтини ишлаб чиқилмаган. Шу сабабли бу мавзунинг долзарб ҳамда касб-ҳунар коллежи ўқитувчилари учун муҳим деб ҳисоблаш мумкин.

Лойиҳанинг мақсади ва вазифалари. Битирув малакавий иши мавзусида келтирилган Малака ошириш маркази динамик Web сайтини яратишдан асосий мақсад сифатида малака оширувчиларнинг ўзлаштириш кўрсаткичларини, малака ошириш марказида амалга оширилаётган турли хил тадбирлар, малака ошириш маркази фаолиятига оид турли маълумотларни интернет тармоғида ёритиб бориш билан боғлиқ бўлган сайт яратишга эришишдан иборат.

Мазкур ишнинг мақсади. Келтириб ўтилган битирув малакавий ишида, Малака ошириш маркази динамик Web сайтини яратиш ва ушбу яратилган динамик сайтни интернет тармоғига ўрнатиш ҳамда етарли самарага эришиш ишнинг асосий мақсади ҳисобланади.

Битирув малакавий ишининг тузилиши ҳақида маълумот. Малака ошириш маркази динамик Web сайтини яратиш мавзуси бўйича тайёрланган битирув малакавий иши асосан куйидаги қисмлардан ташкил топган. Булар, кириш, асосий қисм, ҳаёт фаолияти хавфсизлиги, хулоса ва фойдаланилган адабиётлар бўлимларидан иборат.

Битирув малакавий ишининг кириш қисмида касб таълими йўналишида янги ахборот технологиялари, битирув малакавий иши бўйича мавзунинг долзарблиги, битирув малакавий ишининг мақсади ва вазифалари ҳамда битирув малакавий ишининг тузилиши келтириб ўтилади. Асосий қисм, учта бобдан ташкил топган бўлиб, улар Интернет тармоғи учун Web-сайтларни яратиш, уларга қўйиладиган асосий талаблар ва уларнинг таҳлили, Малака ошириш маркази сайтини яратиш бўйича бошланғич маълумотларни шакллантириш ва умумий структурани ишлаб чиқиш ҳамда Малака ошириш маркази динамик Web сайтини яратиш бобларидан иборат.

Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги бўлимида ўқув хоналарида атроф-муҳит муҳофазаси масалалари ва машғулотларини ўтиш жараёнида ҳаёт фаолияти хавфсизлиги масалалари қараб ўтилади. Шунингдек, умумий таҳлиллари келтириб ўтилади.

Хулоса ва фойдаланилган адабиётлар бўлимида эса, битирув малакавий ишини бажариш бўйича умумий хулосалар, тақлифлар ва ишни бажариш жараёнида фойдаланилган адабиётлар ҳамда тавсия этиладиган қўшимча адабиётлар келтириб ўтилади.

Малакавий битирув ишининг изоҳ бўлимида яратилган Малака ошириш маркази динамик Web сайти дастурининг матни келтириб ўтилади.

1-боб. Веб-сайтларни яратиш бўйича мавжуд манбалар ва уларнинг таҳлили

1.1. Ўзбекистонда сайтлар яратиш ҳолати ва миллий қонунчиликда ахборот хавфсизлиги

Йигирма биринчи аср инсониятга турли инфор­мацион технологияларни тақдим қилди. Ўзбеклар ҳам бу неъматдан четда ҳайрон қолаётгани йўқ. Бу янги нарса бўлгани учун интилишлар, изланишлар, қийинчиликлар ва камчиликлар ҳам пайдо бўлиши табиийдир. Бундан биз асло чўчимаслик, кўркмаслигимиз керак. Бироқ...

Ҳар йили .UZ миллий доменининг Интернет фестивали ўтказилади.

Сайт яса­ш бўйича турли хил технологиялар мавжуд. Тайёр шаблонлардан бошлаб, дастурчиларгина тушуниб етадиган ёки баъзан ўзлари ҳам тушунмай қоладиган сайт очиш услублари бор. Текинидан пуллигигача ҳам талайгина. Текин сайт ясаб бериш ёки тайёр текин сайтларни тақдим қилиш учун ҳам сайтлар бисёр. Маълум бир очиқ кодли веб дастурни ривожлантириш учун жамланган махсус виртуал жамоатлар ҳам тиқилиб ётибди, баъзиларининг сони миллиондан ошиб кетади. Бу эса уларга бўлган талаб жуда юқори эканидан далолат қилади.

Интернетда ишлаганда веб-иловалар хавфсизлиги долзарб масала ҳисобланади. Веб-сайт ёки веб-иловалардан фойдаланиб, интерактив хизматлар тақдим этилган вақтда мазкур веб-сайтлар жуда заиф бўлиб қолади. Веб-сайт ишлаб чиқи­лаётганда унинг ахборот хавфсизлигини таъминлаш масаласи иккинчи даражадаги масала бўлиб қолмоқда ва ишлаб чиқувчилар WEB 2.0. технологиясидан фойдаланиб, фойдаланувчиларга қулайлик яратишга ва веб-сайтнинг ташқи кўринишига кўпроқ эътибор қаратмоқдалар. Кўпгина ташкилотлар веб-сайтларни ахборотхавфсизлиги бўйича текшириш масаласи қанчалик муҳим эканлигини ҳали ҳам тушунмайди.

Веб-сайтларни заифликлар ва хавфлар бўйича текшириш Ахборот хавфсизлигини таъминлаш мар­кази мутахассислари томонидан ишлаб чиқилган схема асосида амалга оширилади. Ушбу текширувлар доирасида веб-сайтнинг ҳакерлик ҳужумларига дош бера олиш қобилияти ўрганиб чиқилади. Агар веб-сайтлар 1С-Bitrix, NetCat, WordPress, Joomla, Drupal каби машҳур веб-сайт бошқарув тизимлари орқали ишлаб чиқилган бўлса, мазкур тизимлар ҳам қўшимча тарзда текширувдан ўтказилади.

Бугун Ўзбекистондаги сайтлар сони 20,8 мингдан ошди. 2015 йилнинг январь ойидан бугунги кунга қадар 2,5 мингдан зиёд янги веб-сайтлар ишга туширилди ва бу жараён жадал давом этмоқда. Ўсиш суръати олдинги йилнинг шу давридагига нисбатан 111 фоиз, йил бошига нисбатан 6,5 фоизни ташкил этади. Сайтлар кўпайиб боргани сари, уларнинг ҳуқуқий ва техник жиҳатдан хавфсизлигини таъминлаш масаласи ҳам долзарб бўлиб бормоқда.

Интернет жаҳон ахборот тармоғидаги сайтлар хавфсизлиги миллий қонунчилигимизда ҳам ўз аксини топган, — дейди Олий Мажлис Қонунчилик палатаси Ахборот ва коммуникация технологиялари масалалари қўмитаси аъзоси, ЎзМТДП фракцияси аъзоси Шухрат Тўхтабоев. — Хусусан, 2007 йил 25 декабрдаги “Ахборотлаштириш ва маълумотлар узатиш соҳасида қонунга хилоф ҳаракатлар содир этганлик учун жавобгарлик кучайтирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонунга асосан, Жиноят кодексига қўшимча 6 модда киритилди. Унга кўра, белгиланган ҳимоя чораларини кўрмаган ҳолда ахборот тизимлари, маълумотлар базалари ва банкларини, ахборотга ишлов бериш ҳамда уни узатиш тизимларини яратиш, жорий этиш ва улардан фойдаланиш тақиқланади. Шунингдек, ахборот тизимларидан рухсат билан фойдаланиш фуқароларнинг ҳуқуқларига, фуқаролар, давлат ёки жамоат манфаатларига зарар етказилишига сабаб бўлса, энг кам ойлик иш ҳақининг эллик бараваригача миқдорда жарима ёки бир йилгача ахлоқ тузатиш ишлари билан жазоланади. Бу ҳаракатлар кўп миқдорда зарар етказган ҳолда содир этилган бўлса, энг кам ойлик иш ҳақининг эллик бараваридан юз бараваригача миқдорда жарима ёки бир йилдан икки йилгача ахлоқ тузатиш ишлари ёхуд олти ойгача қамоқ билан жазоланади. Бундан ташқари, Жиноят кодексига зарар келтирувчи дастурларни яратиш, ишлатиш ёки тарқатиш юзасидан содир этилган жиноят учун жазо турлари ҳам белгиланган. Компьютер тизимида сақланаётган ёки узатилаётган ахборотни рухсатсиз йўқ қилиб юбориш, тўсиб қўйиш, модификациялаштириш, ундан нусха кўчириш тақиқланади. Шу билан бирга, уни қўлга киритиш мақсадини кўзлаб компьютер дастурлари яратиш ёки мавжуд дастурларга ўзгартиришлар

киритиш, махсус вирус дастурларини ишлаб чиқиш, фойдаланиш ва тарқатиш энг кам ойлик иш ҳақининг юз бараваридан уч юз бараваригача миқдорда жарима ёки икки йилгача озодликдан маҳрум қилишга сабаб бўлади.

Шунингдек, ҳозирги кунда XXI аср юксак технологиялар замони, тафаккур асри, ялпи ахборотлашув асри, глобаллашув даври деб таъриф этилмоқда. «Глобаллашув» атамаси дастлаб америкалик олим Т.Левиттнинг 1983 йили «Гарвард бизнес ревью» журналида чоп этилган мақоласида тилга олинган. Муаллиф йирик трансмиллий корпорациялар ишлаб чиқарадиган турли-туман маҳсулот бозорларининг бирлашув жараёнини шундай деб атаган. Лекин ҳозирги даврда глобаллашув бошқача маъно ва аҳамият касб этмоқда.

Глобаллашув - инсониятнинг онгу шуури, тафаккури самараси сифатида вужудга келган жаҳон миқёсидаги умумий жараён, у чегара ва ҳудудларни билмайдиган, тузумларни тан олмайдиган, узлуксиз кучайиб ва ривожланиб бораётган, ахборотлашган жамиятга ўтиш жараёнидир. Тафаккур –жамият тараққиёти даражасини кўрсатувчи ойна. Бу ойнада муваффақиятлар ҳам, камчиликлар ҳам аён кўринади. Сир эмаски, инсоннинг нечоғлик муқаррамлиги, комиллиги фикрлаш даражаси билан белгиланади. Ахборотлар инсон тафаккури ва фикрлаш қобилиятини қай даражада шаклланишига таъсир этуви асосий омилдир. Шу сабабли замонавий цивилизациялашган жамиятнинг ҳозирги даврдаги ривожи ахборотлаштириш жараёни билан характерланади.

1.2. Веб сайт яратиш бўйича асосий тушунчалар

Sayt – bu internet tarmog’i orqali dunyoning istalgan nuqtasidan kirish mumkin bo’lgan ma’lumotlar jamlanmasi hisoblanadi. Saytlar turli dasturlash tillari (PHP, JavaScript, HTML, Ajax va boshqalar) asosida tashkil etilgan sahifalarda iborat bo’ladi. Bu sahifalarga audio, video, matn, grafik va boshqa turdagi ma’lumotlar joylashtirilishi mumkin.

Saytlar, yoki sayt sahifalaridagi ma’lumotlar dinamik (o’zgaruvchan) va statik (o’zgarmas) bo’lishi mumkin.


Statik (o’zgarmas) ma’lumotga ega bo’lgan saytlar WYSIWYG (what you see is what you get –nimani ko’ra olsang ana shuni olasan) asosdatashkil etiladi va undagi ma’lumotlar o’zgarmaydi. Masalan, biror shahar haqida statik

sayt tayyorlandi, deylik. Bunday holatda saytga ma’lumotlar; shahar tarixi, ko’rkam joylari, manzili va bugungi kundagi holati haqida bir necha sahifali ma’lumotlar yoziladi hamda bu ma’lumotlar o’zgartirilmaydi. Siz saytga kirasiz va faqat ko’rib turgan ma’lumotingiznigina olasiz. Statik saytlarda odatda sayt va foydalanuvchi o’rtasida hech qanday amaliyot-aloqa bajarilmaydi.



Dinamik (o’zgaruvchan) saytlarda esa hammasi butunlay boshqacha. Dinamik saytlar va sahifalardagi ma’lumotlar turli usullar bilan o’zgartirilishi, yoki avtomatik tarzda ma’lumotlarning almashinib turishiga asoslangan bo’lishi mumkin. Bunday saytlarda sayt va foydalanuvchi o’rtasidagi amaliyot-aloqa juda yaxshi yo’lga qo’yilgan bo’ladi. Bugungi kundagi saytlarning deyarli barchasi dinamik bo’lib, bu saytlarda foydalanuvchilar saytning asosiy yurituvchi kuchi hisoblanishadi. Dinamik saytga www.odnoklassniki.ru saytini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bilasizki, Odnoklassniki saytidagi deyarli barcha ma’lumotlar foydalanuvchilar tomonidan yaratiladi, o’zgartiriladi, yangilanadi va hatto o’chirib tashlanadi. Odnoklassniki sahifalaridagi ma’lumotlar to’liq sayt va foydalanuvchi o’rtasidagi amaliyot-aloqaga asoslangan.

Ushbu elektron qo’llanma asosida Siz bilan tayyorlamoqchi bo’lgan saytimiz barcha dinamik xossalarni o’zida mujassam etgan bo’ladi.



Boshlang'ich ma'lumot kiritilishi bilan tahminiy so'rov variantlarini taqdim etuvchi dinamik qidiruv sahifasi

Siz tayyorlanishidan bir necha qadam yiroqda turganingiz – shaxsiy veb saytingiz WordPress dasturi yordamida tashkil etiladi. Bu dinamik sayt tayyorlash dasturi bugungi kunda shaxsiy bloglar va saytlar tashkil etish dasturlari orasida dunyoda birinchi o'rinda turadi.

Hosting – saytingizning asosini tashkil etuvchi fayllaringiz saqlanadigan joy. Hosting katta hotiraga ega bo'lgan, kuchli serverlarda tashkil etiladi. Hosting xizmatini taklif etuvchi kompaniyalar o'z serverlarida millionlab saytlarning fayllarini saqlaydi va ularga xizmat ko'rsatadi.

Hosting faqat sayt fayllarini saqlash bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning turli amaliyotlar bajarishi uchun zarur bo'lgan muhitni yaratadi, bu muhitning doimiy xatosiz ishlashini nazorat qiladi.

Hosting xizmati narxi saytingiz uchun ajratilayotgan joy, qulayliklar va xizmat sifati kabi bir necha asoslarda baholanadi. O'zbekistondagi barcha hosting xizmati

provayderlarini www.hosting-obzor.uz saytidan topishingiz va ularga nisbatan bildirilgan foydalanuvchilarning haqqoniy fikrlari bilan tanishishingiz mumkin. Siz tanlagan host qanchalik yaxshi bo'lsa, saytingizning foydalanuvchilar uchun qulayligi, tez ishlashi va doim internet tarmog'ida bo'lishi ham shunchalik yaxshi bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda hosting xizmati provayderlari tomonidan taqdim etilayotgan eng arzon, eng kichik hajmdagi hosting tarifi – bu oyiga 3 000 so'm evaziga 1 domen va 50 mb joyga ega bo'lgan hosting xizmati hisoblanadi. Serverlari O'zbekiston hududida joylashgan milliy hosting provayderlarimizda saytingizni joylashtirsangiz, saytingiz TAS-IX tarmog'ida hisoblanadi. Bu tarmoqda bo'lishning afzalligi shundaki, agar saytingiz TAS-IX tarmog'ida bo'lsa saytingizdagi har qanday ma'lumot (audio, video, rasm va boshqalar)ni ko'rish, olish va ulardan foydalanish O'zbekistondagi ko'pchilik internet servis provayderlar abonentlari uchun bepul bo'ladi. Ya'ni, UzOnline, TPS kabi kompaniyalar abonentlari saytingizga tashrif buyurishsa, foydalanilgan megabayt uchun ulardan pul olinmaydi. O'z-o'zidan aniqki, saytingiz abonentlar foydalanishi uchun tekin bo'lsa, saytingizga tashrif buyuruvchi foydalanuvchilar soni ham ortadi.

Bugungi kunda internetda serverlari xorijiy davlatlarda bo'lgan internet servis provayderlarining 100% bepul hosting xizmatlarini ko'plab topishingiz mumkin. Bu hosting xizmatlari to'lovli hosting xizmatlaridan hech qaysi jihati bilan farq qilmaydi. Faqat O'zbekiston sharoitida xorijiy hosting va milliy hosting xizmatlaridan foydalanish o'rtasida bittagina tafovvut mavjud: xorijiy bepul hosting xizmatlaridan foydalansangiz saytingiz TAS-IX tarmog'ida bo'lmaydi, milliy provayderlarimiz xizmatlaridan foydalansangiz saytingiz TAS-IX tarmog'ida bo'ladi.

Ko'pchilik foydalanuvchilar uchun esa gap kerakli bo'lgan ma'lumot haqida ketayotganda saytning qaysi tarmoqda bo'lishining ahamiyati yo'q. Hozirda O'zbekistonda internet narxlar arzonlashayapti va ko'p abonentlar VIP tariflardan foydalanishayapti. Agar saytingiz TAS-IX tarmog'ida bo'lmasdan, xorijiy bepul hosting tarmog'ida joylashtirilgan bo'lsa ham, unda foydalanuvchilar uchun kerakli, qimmatli bo'lgan ma'lumotlar jamlangan bo'lsa nafaqat VIP tarifiga ulangan abonentlar, balki cheklangan megabayt asosida internetdan foydalanuvchi abonentlar ham saytingizdan foydalanishadi. Hamma gap saytingizning amaliy qiymatida!

Ushbu qo'llanma asosida ochadigan saytingiz Rossiyada joylashgan Hostinger serverlaridan birida joylashtiriladi. Demak, saytingiz TAS-IX tizimida bo'lmaydi. Ammo saytingizni rivojlantirib, sayt yuritish ilmini yaxshi o'zlashtirib olganingizdan so'ng, saytingizni O'zbekiston hostinglaridan biriga o'zgarishlarsiz ko'chirishingiz mumkin bo'ladi. Har qanday saytni boshqa hostga ko'chirish juda oson.

Domen – hosting serverida joylashgan saytingiz fayllarini foydalanuvchiga “chaqirib beradigan”, butun dunyo bo'yicha taniqli va yagona bo'lgan o'ziga xos sayt nomidir.

Sayt nomlari (domenlar) odatda davlat yoki turga tegishlilikni bildiruvchi ikki, uch yoki to'rt harfdan iborat nuqtali kengaytma bilan tugaydi. Bu kengaytma “birinchi bosqichdagi domen” hisoblanadi. Mana hozirgi kunda Siz ishlatadigan eng ommabop domen kengaytmalari:

.uz – O'zbekiston saytlari

.com – Kommersiya, tijorat saytlari

.ru – Rossiya Federatsiyasi saytlari

.org – Organizatsiya, tashkilot saytlari

.tv – Televideniya saytlari

.net – Network, tarmoq saytlari

Bu nuqtali kengaytmalardan oldin yana qandaydir yozuv bo'lsa, bu domenning “ikkinchi bosqichdagi domen” ekanligini bildiradi. Masalan, azamat.uz sayti “.uz” bo'lgan birinchi bosqichli domen ostida joylashtirilgan “azamat” deb nomlangan ikkinchi bosqichli domen nomini anglatadi. Demak, azamat.uz domeni ikkinchi bosqichdagi domen nomi hisoblanadi.

Keyingi bosqichdagi, uchinchi bosqichdagi domen nomi sub-domen deb yuritiladi. Bunday domen ikkinchi bosqichli domen nomi ostida tashkil etiladi. Masalan, sahifa.azamat.uz domenidagi “sahifa” uchinchi bosqichdagi, yohud sub-domen hisoblanadi.

Ushbu elektron qo'llanma yo'l-yo'riqlari asosida Hostinger xizmatlaridan foydalanib ochadigan shaxsiy saytingizning domeni ham uchinchi bosqichdagi sub-domen sifatida ochiladi.


Domen va hosting alohida tushuncha. Domen sozlanmalariga hosting, hosting sozlanmalariga esa domen ma'lumotlari yozilgan holda ular birikib, bir butun sayt sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Hostinger bugungi kundagi zamonaviy, kuchli va qulay bo'lgan hosting kompaniyalaridan biri. Uning serverlari dunyoning deyarli barcha nuqtalarida faoliyat ko'rsatadi. Hostinger juda katta hosting

xizmatlarini ko'rsatuvchi kompaniya hisoblanadi. Uning mijozlari ko'p. Kompaniya pulli xizmatlar bilan bir qatorda, mijozlarini yanada ko'paytirish maqsadida 100% bepul hosting xizmatini ham taklif qiladi. Kompaniyaning bepul hosting xizmati pulli xizmatlaridan deyarli farq qilmaydi.


Hostingerning bepul hosting xizmatiga ega bo'lish uchun saytga a'zo bo'lishingiz kerak. Quyida saytga a'zo bo'lish va bepul hostingga ega bo'lish jarayonini qadam-baqadam tushuntirib beraman. Siz a'zo bo'lmoqchi bo'layotgan sayt - Hostinger saytining Rossiya Federatsiyasida joylashgan serverlariga mas'ul rus tilidagi interfeysga asoslangan sayt hisoblanadi. Rus tilidagi interfeys har tomonlama o'zbekistonliklar uchun qulay bo'lganligi sababli Hostingerning aynan rus tilidagi saytini tanladik. Rus tilini yaxshi bilgan holda saytni yaratishdan tashqari ham hosting bilan ishlashni davom ettirishingiz, hosting xizmatining qo'shimcha manbaalaridan va qulayliklaridan foydalanishni o'rganish jarayoningizni davom ettirishingiz mumkin.

1. Brauzeringiz manzil yozish joyiga www.hostinger.ru deb yozing va ENTER tugmasini bosong.



Enter tugmasi bosilgandan so'ng Hostingerning rus tilidagi sayti ochiladi. Internet tezligingizga qarab saytning ochilishi tez yoki sekin bo'lishi mumkin.

2. Ochilgan Hostinger saytining birinchisahifasida "Sozdat akkaunt" bo'limini tanlang.




Sahifaning yuqori o'ng burchagida, login va parol yozish qismining pastida "Akkaunt yaratish" bo'limiga olib boruvchi bog'ni bosishingiz kerak bo'ladi.

3. Ro'yxatdan o'tish so'rovnomasini to'ldiring va "Sozdat akkaunt" tugmasini bosning.

So'rovnomadagi ismingiz, email manzilingiz, parolingiz va xavfsizlik kodi yozilishi kerak bo'lgan qismlarni to'ldiring va a'zolikni yaratish uchun "Sozdat akkaunt" tugmasini bosning.

4. Ro'yxatga olish jarayonida ko'rsatilgan emailmanzilingizga aktiv qilish xati yuboriladi.



So'rovnomani to'liq to'g'ri to'ldirib bo'lga-ningizdan so'ng so'rovnomada ko'rsatilgan email manzilingizga aktivlashtirish xati yuborilganligi haqida xabar olasiz. Pochtangizni tekshiring. Pochtangizga kelgan xatning aktiv qilishbog'ini bosning va a'zolikni tasdiqlang.

1.3. Мауммонинг қўйилиши ва унинг амалий аҳамияти

Маълумки, бугунги кунда замонавий ахборот технологиялари асосида ўқув-методик жараёнларини ташкил этиш ва уни амалда жорий этиш натижасида машғулот самарадорлигини оширишга, шунингдек, малака ошириш тизимидаги тингловчиларни бугунги бозор иқтисодиёт шароитига мос бўлган кадрларни тайёрлашда ўзига хос аҳамият касб этади. Шунингдек, академик лицей ва касб – ҳунар коллежларида амалга оширилаётган ишлар ва ютуқлар ҳақидаги маълумотларни интернет тармоғида ёритиб бориш, малака ошириш тизимида амалга оширилаётган ишлардан лавҳалар ҳам ўзига хос алоҳида аҳамиятга эга.

Битирув малакавий ишида келтириб ўтилган “НамМПИ қошидаги Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг динамик Веб сайтини яратиш” мавзуси асосида эса, куйидаги масалаларни хал қилиш талаб қилинади:

- Веб сайтлар яратувчи CMSлар ва дастурий воситалар ҳақида мавжуд манбалар таҳлили
- Веб сайтлар яратувчи CMSлар бўйича мавжуд адабиётлар таҳлили
- Веб сайтлар яратувчи воситаларнинг роли ва аҳамияти
- Масаланинг қўйилиши ва унинг амалий аҳамияти
- Малака ошириш ва қайта тайёрлаш маркази бўйича Веб сайт яратиш
- Малака ошириш ва қайта тайёрлаш маркази бошланғич маълумотларини шакллантириш
- Веб сайт яратиш ва уни ўрнатиш талаблари, дастурий маҳсулотлар ва Веб-сайтлар яратиш воситалари
- НамМПИ Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг Веб сайтини яратиш технологиясини ишлаб чиқиш
- Яратилган сайтдан фойдаланиш йўриқномасини ишлаб чиқиш
- НамМПИ қошидаги Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг Веб сайтини ўрнатиш ва самарадорлигини баҳолаш
- НамМПИ Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг Веб сайтини ўрнатиш
- НамМПИ Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг Веб сайти самарадорлигини баҳолаш
- Веб сайт яратиш мавзуси бўйича амалий дарс ишланма яратиш
- Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги
- Веб сайт яратишда компьютердан фойдаланиш қоидаларини ишлаб чиқиш
- Дастурий таъминот яратишда электр хавфсизлиги
- Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги бўйича таҳлилий фикрларни келтириб ўтиш ва битирув малакавий иши бўйича бажарилган ишдан олинган натижалар бўйича хулосани келтириб ўтиш талаб қилинади.

Келтириб ўтилган фикрлардан кўринадики, янги ахборот технологияларини яратилаётган веб сайтлар асосида интернет тармоғида ёритиб бориш академик лицей ва касб-ҳунар коллежларининг ютуқларини намойиш этишда катта имкониятларни очиб беради. Шунингдек, битирув малакавий ишининг асосий мақсадини қисқача айтиб ўтадиган бўлсак, асосий мақсад НамМПИ қошидаги Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг Веб сайтини яратиш ва янги ахборот технологияларини қўллаш талаб қилинади.

2-боб. Малака ошириш ва қайта тайёрлаш маркази сайтини яратиш бўйича бошланғич маълумотларни шакллантириш ва структура ишлаб чиқиш

2.1. Web сайтларни яратиш воситалари ва сайтларга қўйиладиган талаблар

Hozirgi davrga kelib, CMS asosiga qurilgan bir qancha tizimlar yaratilgan. Ularga misol qilib, Drupal, PHP-Nuke, WebDirector, Joomla!, NetCat, Slaed, Microsoft CMS, WordPress, PHPShop kabilarni keltirish mumkin. Bu tizimlarning ba'zilar umuman tekin bo'lsa, ba'zilaridan esa haqqini to'labgina foydalanish mumkin.

CMS ni tanlash bir tomondan oson va jo'ndek ko'rinsada, bu juda jiddiy masala. Internetda ularning turli yo'nalishdagi o'nlab (agar yuzlab bo'lmasa): yuz dollarlab turadiganidan to ochiq kodli bepul turigacha, ma'lum bir sohagagina taalluqlisidan ixtiyoriy murakkablikdagi sayt qurish imkonini beradiganigacha, oson boshqariladiganidan administrator uchun katta qiyinchiliklar keltiradiganigacha turini topishingiz mumkin. Xullas, agar CMS lar bilan ishlash bo'yicha hech qanday tajribangiz bo'lmasa, keraklisini tanlash qiyinlashib ketishi tayin.

Dastlab keling, pullik CMS larni ishlatmaslikka harakat qilamiz. Axir katta pul to'lab, CMS ni ishlatishdan besamara foydalanishga naxojat. Shu yerda bir narsani aytib o'tish kerak: bu bilan o'zimizga qiyin qilamiz. Boshqa tarafdin esa, qanchalik murakkab bo'lsa, shunchalik qiziq bo'lishi aniq, shunday emasmi?

Endi CMS larga yana bir talab qo'yamiz: universallik. Bu degani, biz ishlatmoqchi bo'lgan CMS ixtiyoriy konfiguratsiyadagi kompyuterlarda ham ishlay olishidir. Shuningdek, saytni lokal serverdan haqiqiy serverga ko'chirganimizda yoki bevosita serverning o'zida yaratayotganimizda CMS bilan hech qanday qiyinchiliklar tug'ilmasligi kerak. Bu talabga esa, afsuski, ko'pchilik bepul CMS lar javob bera olmaydi.

Barcha dasturiy ta'minotlarga qo'yiladigan talablardan yana biri – xavfsizlik (axir siz haftalab-oylab yaratgan saytingizni shunchaki qiziqish uchun bir kunda buzishlarini xohlamasangiz kerak?). Shuning uchun CMS larning xavfsizlik darajalari doimiy yangilanib turishi shart.

Natijada, talablarimizga deyarli to'liq javob beradigan quyidagi: PHP Nuke, Drupal, Joomla!, Slaed CMS tizimlarigina qoladi. Endi ana shu CMS larni batafsilroq ko'rib chiqamiz va o'zimizga kerakli ba'zi xulosalar chiqaramiz.

PHP Nuke. Eng birinchi CMS lardan biri bo'lib, afsuski, ancha vaqtlardan buyon yangilanmay kelmoqda. Biroq, uning kodi ko'plab adashlari uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda (masalan, DotNetNuke, PostNuke). Bu bir-biriga nom jihatdan yaqin bo'lgan tizimlar foydalanuvchi diqqatiga navbatma-navbat chiqib turadi. Funktsionallik jihatidan tizim ancha mukammal bo'lib, uning uchun ko'plab qo'shimcha modullar yaratilgan. Masalan, xabarlar lentasi, forum, maqolalar, so'rovlar tashkil qilish, statistika olib borish va boshqalar. Ammo, saytlarning tuzilishi jihatidan bir xillik kuzatiladi. Shu bilan birga, bu tizim yuklanishi qiyin bo'ladi, ya'ni qo'shimcha modullar sahifa yuklanishini sekinlashtiradi. Bu esa ko'plab foydalanuvchilarga yoqmasligi tayin. Yuklanish nafaqat sahifaga, shuningdek, serverga ham tushadi, bu esa xosting xizmatini taqdim etuvchilarga yoqmaydi. Agar sizni shunday vaziyat qoniqtirsa, aynan shu CMS ni tanlashingiz mumkin. Murojaat qilish uchun rasmiy sayti: www.nukefiles.ru

Drupal. Turli xil o'zgartirishlar orqali o'zimizga moslab olish bo'yicha eng mukammal CMS deb aytish mumkin. Shu yerda shuni aytish kerakki, "Tomchi" (bu tizim nomi ingliz tilidan aynan shunday tarjima qilinadi) aslida, CMS emas, balki "CMS ni tuzuvchi tizim". Uning yordamida siz tayyor bloklardan kerakli CMS ni yig'asiz. Shuni aytish mumkinki, funktsionallik va dizayn jihatidan o'zingizni qanoatlantiruvchi CMS ni hosil qilasiz. Standart modullar to'plamiga blog, forum, xabarlar lentasi, fayllarni yuklash, ovoz berish, qidiruv kabilar kiradi. Bunda ko'rinadigan kamchilik bitta: PHP va

MySQL ni mukammal bilish lozim. Agar bu qisqartmalarni tushunmagan bo'lsangiz, keyingi CMS ga o'tavering, aks holda esa bu tizimga jiddiyroq e'tibor bering. Rasmiy sayti: www.drupal.org. Texnik yordamni www.drupal.ru saytidan ham olishingiz mumkin.

Slaed CMS. Bugungi kunda ancha ommabop CMS bo'lib, turli xil saytlarda ishlatiladi. Ikki xil varianti mavjud: pullik va tekin (OpenSlaed). Ikkovi ham bitta yadroda qurilgan (bu degani xavfsizlik darajasi bir xil) va faqatgina funksionalligiga ta'sir qiluvchi modullar soni bilan farqlanadi. Bepul variantida biror mavzudagi nisbatan kichik portalni yaratishingiz mumkin. Ammo, bundan ortig'ini emas. Dizayni ham unchalik katta qiyinchiliklarsiz o'zgartirilishi mumkin. Tizim aslida Rossiyada yaratilgani uchun rus tilidagi yordam (slaed.net) haqida qayg'urmasa ham bo'ladi.

Joomla! Bugungi kunda eng mukammal dvijoklardan biri (agar bepullari ichida eng mukammali bo'lmasa) bo'lib, uning uchun shunchalik ko'p qo'shimcha modullar yaratilganki, ular yordamida o'zingizning saytingizga deyarli ixtiyoriy funksionallikni berishingiz mumkin. Bu dizaynga ham tegishli bo'lib, uni o'zgartirish uchun ham juda ko'p shablonlar mavjud. Biroq, bu yerda bir kamchilik ham bor: shablonlar tizimi shunday tuzilganki, sahifalarni yaratish va to'ldirish jarayonida sayt bo'limchalari kichik-kichik qismlar bo'lib, ajralib qolishi mumkin. Ya'ni, bu qismlar jadvallar asosida yaratilgan. Bu esa saytingizga o'z shaxsiy ko'rinish berishingizda bir qator noqulayliklar tug'diradi: yuqorida tilga olingan qismchalar kutilmagan joyda chiqib qolib, jahlingizni chiqaradi, shuningdek, ularni yo'qotish uchun vaqtingiz ketadi. Umuman olganda, agar sizni tayyor shablonlar qoniqtirsa (ular esa juda ko'p va xilma-xil), u holda bu tizim sizga juda mos keladi. Agar siz Joomla! ni tanlab o'ziga xos original sayt yaratmoqchi bo'lsangiz ozgina terlashingizga to'g'ri keladi. Rasmiy yordam sayti: joomla.org. Shuningdek, ruscha yordamni norasmiy bo'lsada, ancha yaxshi bo'lgan joomlportal.ru va joom.ru saytlaridan ham olishingiz mumkin.

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan tavsiyalar asosida siz o'z saytingizni tez va oson ravishda yaratishingiz mumkin. Ammo hech qaysi CMS sizga tayyor holdagi saytni taqdim etmaydi. Buning uchun sizdan harakat va mehnat talab etiladi. Yaratayotgan saytingiz boshqalarnikiga o'xshamasligi, dizayn jihatdan takrorlanmas va original bo'lishi uchun esa shaxsiy fantaziyangiz va qobiliyatingizni ishga solishingiz kerak.

2.2. Динамик сайтларни яратишда CSSларни қўллаш ва уларнинг имкониятларининг шарҳи

CSS – bu stillar bilan ishlay oladigan kaskadli stillar majmuasidir. Web sahifalarga har xil stillar berish uchun ishlatiladi. HTML xujjat ichida teglar bilan birga foydalaniladi. CSS kodlarini kompilyastiya qilish uchun qandaydir kompilyatorlar, qandaydir dasturlar, va bu kod tushuna oladigan qandaydir redaktorlar kerak bo'lmaydi. Bu kodlarni HTML singari web brauzerning o'zi kompilyastiya qiladi va natijani chiqarib beradi.

Bu stillar jadvali(CSS) to'liq holatda **1997** yilda tashkil topib, "**WWW Consorciium**" ida qo'llab quvvatlangan va foydalanishga taqdim etilgan. O'sha paytlarda HTML ning 3 versiyasi ommabop edi. CSS ni dastlab **Netscape Navigator 4.0** va **Internet Explorer 4.0** brouzerlarida ko'rish mumkin bo'lgan. Hozirda barcha brouzerlar css da yozilgan kodlarni tushuna oladi. Bu stillarga oid dasturlash tilini o'rganish sodda bo'lib, yangi stillar qo'shilishi natijasida kengayib bormoqda.

CSS ni HTML xujjati ichida ishlatilishini birin ketin ko'rib o'tamiz:

1. Web sahifada ishlatiladigan CSS kodlari orqali hosil qilinadigan stillarni hammasini bitta faylga yozib, uni serverda saqlaymiz. So'ng, sahifadan, serverdagi saqlab qo'yilgan faylga murojaat qilib, kerakli stilni olamiz. Bu usul katta hajmdagi web sahifalar yaratishda foydali hisoblanadi. Faylga murojaat, **<head>**tegi ichida amalga oshiriladi va quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

```
<LINK REL=STYLESHEET TYPE=»text/css» HREF=»URL»>
```

<link> teги sahifa biror faylga murojaatni amalga oshirmoqda degani, **REL** – fayl qandaydir stillardan iborat degani, **TYPE** — stillar css kodlaridan iborat va fayl joylashgan manzil yoziladi.

- A. CSS kodlar veb sahifa ichidagi **<head>** teги orasida beriladi. Bunda yaratilgan stillar shu sahifaga tegishli bo'ladi, bu degani faqat shu sahifada ishlatilish mumkindir.

```
<head>< STYLE TYPE=»text/css»>
```

```
<!--
```

```
A {text-decoration:none; }
```

```
-->
```

```
</--STYLE></head>
```

- B. Navbatdagi turi, bu har bir element uchun alohida teg ichida stil berib chiqishdan iborat. Misol uchun, "p" teги ichida biror matn yozilsa, shu matn uchun teg ichida alohida stil beriladi va bu stil shu teg uchun xususiy bo'ladi. Bu usuldan foydalanishni maslahat bermiman, chunki bu usul kodlarni chalkash va tushunarsiz bo'lishiga olib keladi. Shoshilinch vaziyatlarda yoki stil qay tartibda namoyon bo'lishni ko'rib olish uchun bu usuldan foydalanishni maslahat beraman.

Undan tashqari **<style>** teги orqali css faylni import qilish mumkin bo'ladi.

```
@import: url(mystyles.css);
```

CSS stillarini ishlatishda, quyidagi guruhlash usullaridan foydalanish, tartibli web sahifa tuzishga olib keladi:

— Kodlarni ixchamlash uchun, xar hil elementlar uchun bir hil tipdagi stillarni guruhlab ishlatish maqsadga muvofiqdir.

```
H1 {font-family: Verdana }
```

```
H2 {font-family: Verdana }
```

Yuqoridagi stilni guruhlab quyidagicha yozamiz.

```
H1, H2 {font-family: Verdana }
```

— Guruhlashda bir hil element uchun bir necha stillarni birlashtirish mumkin.

```
H2 {font-weight: bold }
```

```
H2 {font-size: 14pt }
```

H2 {font-family: Verdana}

Barcha stillarni bittaga yifamiz.

H2 {font-weight: bold; font-size: 14pt; font-family: Verdana;}

— Ba’zi stillar bitta stil ichida berilishi ham mumkin.

H2 {font: bold 14pt Verdana}

CSS stillari bilan ishlaganda, element ichidagi elementlar ham o’zidan yuqori turgan element stilini qabul qiladi, ya’ni o’zidan oldingi element ”ota” vazifasini bajaradi va o’z “farzandlari”ga ham o’zida borini beradi. Misol uchun, <p> tegi ichidagi matn ko’k rangda yozilishi lozim bo’lsa(P {color: blue}), <p> tegi ichidagi tegiga tegishli bo’lgan matn ham ko’k rangda yoziladi.

Ba’zi stillar faqat yakka tartibda ishlaydi, ya’ni ichki teglarga stillari o’tmaydi(misol uchun, background), shuning uchun barcha stillarni birma bir ishlatib, o’rganib olish lozim. <body> tegiga stil berib, dastlabki o’rnatilish(po umolchaniyu) jarayonini hosil qilish mumkin. Shunda biror elementga stil berish esdan chiqib qolsa, <body> tegida ta’luqli stil esdan chiqqan elementga o’rnatiladi.

BODY {color: green;

font-family: «Verdana»;

background: url(joke.gif) white; }


Web sohasida, blok tushunchasi juda kerakli termin hisoblanadi, saytning barcha brauzerlarda bir xilda ochilishi, rasm va yozuvlarni o’ylaganingizdek namoyon bo’lishi aynan blok holatiga bog’liq. Bu maqoladan boshlab, blokga tegishli stillar xususiyatini ko’rib chiqamiz. Dastlab, umumiy blok nimaligini bilib olamiz.

Blok bu — ma’lum bir chegaraga ega bo’lgan va alohida qism sifatida qaraladigan ma’lum bir axborotni o’zida saqlaydigan joydir.

HTML gippermatn tilini oladigan bo’lsak, u yerda ham blok va qator elementlari tushunchasi bor. Blokli elementlar, alohida strukturaga ega bo’lib, to’rtburchak chegaraga bilan o’ralgan bo’ladi. Ikkita blokli elementni bir qatorga joylashtirib bo’lmaydi. HTML gippermatn tilida blokli elementga misol qilib, «**H1...H6**», «**P**» va «**DIV**» teglarini olish mumkin. Har safar bu teglarni ishlatganda, brauzer har biri uchun alohida qator ajratib beradi.

Qatorli elementlarga esa, «**strong**», «**em**», «**i**» kabi teglarni misol qilish mumkin. Bu teglardan bir qatorida bemalol foydalansa bo’ladi.

CSS stillar texnologiyasida ham blok tushunchasi mavjud va u ham o’z strukturasi va to’rtburchak chegarasiga ega. Strukturali blok ichida qatorli blok ham bo’lishi mumkin(blok ichidagi yozuvlar), qatorli blok yozuv ko’rinishida ham bo’lishi mumkin, to’g’riroq etadigan bo’lsak, strukturali blok ichida ob’yektli blok bo’lishi mumkin. YUqoridagi nazariy ma’lumotlarni quyida bitta rasm orqali tushunish mumkin.



Bloklarning o'z xususiyatlari bor, misol uchun, blok uzunligi(width), blok balandligi(height), chegarasi(border),...

Har bir blok qandaydir tashkil etuvchilardan iborat bo'lishi shart, ya'ni yozuv, rasm yoki boshqa axborot. Blokning bu qismi **kontent** deb yuritiladi. Misol uchun «**P**» tegi uchun kontent yozuv hisoblanadi.

Blok atrofida qandaydir boshqa blok yoki ob'yektlar bo'lishi mumkin, blokdan ulargacha bo'lgan masofaga «**margin**» kalit so'zi javob beradi.

Blok ajralib turishi uchun, uning chegarasi bo'lishi lozim, bu chegaraga «**border**» javob beradi.

YUqoridagilardan tashqari blokning ichki bo'sh oralig'i bo'lishi mumkin, ya'ni blokdan blok chegarasigacha bo'lgan masofa, bu masofaga «**padding**» kalit so'zi javob beradi.

2.3. “Динамик сайтларни яратиш дастурий воситалари. WordPress дастури” мавзуси бўйича амалий дарс сценарийсини ишлаб чиқиш

Maqsad: « Динамик сайтларни яратиш дастурий воситалари. WordPress дастури » mavzusi bo`yicha o`quvchilar bilimini tekshirish.

Materiallar: o`yinli texnologiyalar.

Vaqt: 2 akademik soat.

SHakl: Guruhda ishlash.

Metod: «Aylanma stol»

Mashg`ulotning borishi:

1. Tashkiliy qism. Guruh talabalari har biri 8 ta o`quvchidan iborat guruhlariga bo`linib, aylana bo`ylab o`tkizaladi. Har bir guruh oldidagi stolga 8 ta sarlavha yozilgan varaqlar qo`yiladi.

2. Y`qituvchi quyidagicha tushuntirish ishini olib boradi.

Stol ustidagi 8 ta varaqning har birini sarlavhasida ma`lum bir aniq masalaning g`oyasi yoki algoritmi yozilgan. Har biringiz uning tagiga, ushbu usul bilan bog`liq bo`lgan biror masala dasturini yoki algoritmini yozasiz. SHundan so`ng chap tarafdagi qo`shningizga uzatasiz. Sizga o`ng tarafingizdan kelgan qog`ozni to`ldirasiz va yana chap tarafingizdagi qo`shningizga uzatasiz toki birinchi to`ldirgan varag`ingiz o`zingizga qaytib kelguncha.

3. Guruhlar ishini boshlaydilar

4. Varaqlar o`z «egalariga» qaytib kelganidan so`ng muhokama bosqichi boshlanadi. U quyidagicha tashkil etiladi:

a) Biror guruhning vakili o`zining varag`ini doskaga olib, o`z guruhining g`oyalarini o`qib beradi.

Masalan:

Web sahifa – saxifa tashkil etish

Sayt yaratish – saxifalarning o`zaro bog`liqligi keltiriladi.

Oddiy saxifa shaklidagi – kurinishlari keltiriladi.

Har bir tarkatilgan kogozda o`zining sarlavhasi bor. YAratish usullari keltiriladi: saxifa shaklida, dastur shaklida.

Saxifani yaratish texnologiyasini ishlab chiqish kerak.

Algoritm uchun saxifani ishlab chiqish kerak

Saxifani tahlil qilib natijani asoslab berish kerak

Sahifani namoyish qilib natijani tekshirib kurish kerak.

b) Bitta guruh varog`ini doskada tushuntirayotgan paytda, qolgan guruhdagilar bir xil g`oyalarni chizib tashlaydilar. SHundan so`ng ikkinchi guruh vakili o`zining varog`ini olib, qolgan g`oyalarni o`qiydi;

v) barcha guruhlar o`z g`oyalarini o`qib eshittirganlaridan so`ng, agar boshqa qo`shimchalar bo`lmasa, qarab chiqilayotgan tushuncha bo`yicha muhokama to`xtatiladi;

g) qolgan tushunchalar ham yuqoridagi kabi qarab chiqiladi.

Ushbu metodni «Web sayt yaratish» mavzusida qo`llash quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

1) katta hajmdagi materialni qamrab oladi;

2) o`quvchilar bilimini chuqurlashtiradi;

3) saxifalarni yaratish boiqichlarini, masala mohiyati tushunishga yordam beradi;

4) Sahifalar asosida sayt yaratish buyicha bilimlarini yanada kuchayishiga amaliy yordam beradi;

5) mavjud bilimlarni mobilizasiya qilish va ularni turli vaziyatlarda qo`llash malakalari shakllanadi;

6) guruhda ishlash ko`nikmalari rivojlanadi;

- 7) o`quvchilar jamoaviy konsultasiya oladilar;
- 8) ma`lum mavzu bo`yicha o`zining bilimlarini qisqa va asosli bayon qilish malakalari shakllanadi.

Bundan tashqari darsda quyidagi o`yinli texnologiyalarni qo`llanilishi mumkin.

1. Hotira mashqi.

Ushbu o`yin butun guruh bo`yicha o`tkaziladi. Y`qituvchi mavzuga oid terminlar, so`zlarni o`qib eshittiradi, bu paytda o`quvchilar faqat o`qituvchi o`qib berayotgan narsalarni eshitadilar. Y`qituvchi ma`lum bir miqdordagi, masalan 10 ta so`zlarni o`qib eshittirib bo`lgandan 5 soniya o`tgach o`quvchilarga "YUqorida o`qiganlarimni orasidan eslaringda qolganini yozib beringlar" deydi va ma`lum bir vaqt beradi.

Y`qituvchi o`qib eshittiradigan 10 ta termin:

- 1) tasvir
- 2) rangli
- 3) sahifa
- 4) giperishorat
- 5) zakladka
- 6) belgi qo`yish
- 7) tugma
- 8) Layer
- 9) freym
- 10) sayt

Vaqt o`tgach o`qituvchi natijalarni e`lon qiladi, ya`ni quyidagicha:

1. 9-10 tagacha, eslab qolish qobilyati yuqori;
2. 7-8 tagacha, eslab qolish qobilyati o`rtacha;
3. 5-6 tagacha, eslab qolish qobilyati past;
4. 4 tagacha, eslab qolish qobilyati o`ta past.

2. Koptok otish.

Ushbu o`yinni o`tkazish uchun guruhdagi talabalar uch guruhga bo`linadi. Har bir guruhga bittadan guruh sardori saylanadi. Sinf honasida guruhlar joylashuvi quyidagicha bo`ladi: Birinchi guruh birinchi qatorga joylashadi, ikkinchi guruh ikkinchi qatorga joylashadi, uchinchi guruh uchinchi qatorga joylashadi. Guruhlar joylashib bo`lgach har bir guruh sardorlari Y`qituvchi aytgan joyga borib, ya`ni o`z guruhlaridan ajralib chiqib ularni to`g`risiga turadilar. Y`qituvchi qo`lidagi kaptokni birinchi guruh tomon uloqtiradi. qaysi o`quvchi kaptokni ilib olsa o`sha o`quvchiga o`qituvchi mavzu bo`yicha savol beradi, agar o`quvchi savolga to`g`ri javob bersa birinchi guruhga ball yoziladi, agarda to`g`ri javob bermasa bu savolga guruh sardori javob beradi, guruh sardori to`g`ri javob bersa birinchi guruhga ball yoziladi, agarda guruh sardori ham javob bera olmasa birinchi guruhga ball yozilmaydi. SHu tariqa qolgan guruhlar bilan ham shunday o`yin o`tkaziladi. Y`yin tugagach uchala guruhning ballari hisoblanib o`rinlarga g`olibni aniqlanadi. Y`qituvchi bu o`yin orqali ko`p o`quvchilarni baholash imkoniga ega bo`ladi.

Y`qituvchi berishi mumkin bo`lgan savollar:

1. Saxifa nima.
2. Saytlarni yaratuvchi dasturiy vositalarga vositalarga misol keltirig.
3. Tasvir sifatini oshirish nima uchun kerak.
4. Tasvir sifatini oshiruvchi dasturlarni sanab bering.
5. Dasturiy vositlarda sayt yaratish uchun qanday ish bajarilishini tushuntiring.
6. Saytda qanday tasvirlar ishlatiladi.
7. Qanday tasvir turlarini bilasiz.

Ўқув модуль бирликлари:

1. Web-саҳифаларни яратиш бўйича тавсиялар.
2. Web-тармоқларни яратишнинг умумий тамойиллари
3. Web-дизайн.
4. Web-дизайн яратишнинг асосий қоидалари.
5. Web-дизайн технологияси.
6. Web-дизайнда графика. График дизайн асослари.
7. Динамик сайтларни яратиш
8. Web-дизайнда графика. График файл форматлари. GIF ва JPEG график форматлари.
9. График тасвирларни оптималлаштириш. Web-дизайнда графика. Web саҳифага тасвирларни боғлаш.
10. WordPress дастури
11. Маълумотлар базасини яратиш ва уларни бошқариш. Denwer дастури.

Аниқлаштирилган ўқув мақсадлари (талабанинг вазифалари) талаба ушбу мавзунини ўзлаштиригандан сўнг:

- Web-тармоқларни яратишнинг умумий тамойилларини билади
- Web-дизайн технологияси бўйича тушунчага эга бўлади.
- График дизайн тушунчасига эга бўлади.
- Web саҳифа учун тасвир ўлчамлари билан ишлаш олади.
- GIF ва JPEG график форматлари билан ишлаш олади.
- Web саҳифага тасвирларни боғлашни билади.
- WordPress дастури имкониятларини билади.
- WordPress дастурида динамик сайтларни яратиш ва уларни қайта ишлаш малакасига эга бўлади.
- Denwer дастури имкониятларини билади

Таянч сўз ва иборалар

- Web-тармоқ
 - Web-дизайн. Web-дизайн яратишнинг асосий қоидалари. Web-дизайн технологияси.
 - Web-дизайнда графика. График дизайн асослари.
 - Web саҳифа учун тасвир ўлчамлари.
 - Web-дизайнда графика. График файл форматлари. GIF ва JPEG график форматлари.
 - WordPress
 - хатр
 - Denwer
 - График тасвирларни оптималлаштириш. Web-дизайнда графика. Web саҳифага тасвирларни боғлаш.
- WordPress дастурини ўрнатиш мавзуси бўйича дарснинг интерфаол моделини яратиш

“WordPress дастурини ўрнатиш” мавзусини янги педагогик технологиялар асосида ўқитишни ташкил этиш услубиёти бўйича амалий дарс сценарийсини кўриб ўтамиз.

Қуйидаги мавзу бўйича тайёрланган дарс сценарийсини келтириб ўтайлик.

Амалий машғулот дарсини ўтиш сценарийсини учун структура

Сана : _____ Гуруҳ: _____ Фаннинг номи: Web дастурлаш Мавзу: Wordpress дастурини ўрнатиш Дарс тури: Амалий Дарс вақти: 80 минут

Вақт	Босқичлар	Таълим берувчининг фаолияти	Таълим олувчининг фаолияти	Кутилаётган натижа
------	-----------	-----------------------------	----------------------------	--------------------

	Тайёрлов	Ўқув машғулоти мақсади ва натижаларини аниқлайди, баҳолаш мезонини аниқлайди. Зарурий ўқув материаллари, амалий машғулоти бошлаш учун тайёргарлик кўриш ва давомат.	Ўқув қуролларини кўздан кечириш ва таълим олиш учун тайёргарлик .	Амалий машғулоти дарсига тайёр туради
5 д	Кириш	Wordpress дастурини ўрнатишга оид муаммоли саволлар беради ва берилган жавобларни баҳолайди.	Берилган саволларга ихтиёрий тингловчи жавоб беради.	Савол жавоб орқали мавзу бўйича билими янада ортади
30д	Асосий қисм	Тингловчиларнинг берган жавобларни умумлаштиради. Wordpress дастурини ўрнатишни тушунтирилади.	Керакли маълумотларни ўзларида қайд этадилар ва ҳимоя усулларини кетма-кетлигини ўрганиб чиқади.	Wordpress дастурини ўрнатиш юзасидан тушунчалар хосил бўлади
10д		Frontpage дастури ва унинг имкониятларига оид назорат саволларини бериш	Саволларга жавоб бериш қайтариш	Олган тушунчаларини мустахкамлайди
10д		Жавоб натижаларини таҳлил қилиш ва етказиш	Тинглайдилар	Активлик
10д		Ўқувчиларни бир нечта гуруҳга бўлиб, Frontpage дастури ва унинг имкониятларини унинг буйруқлари ва улардан фойдаланишга оид масала беради.	Ҳар бир кичик гуруҳ дарсда олган тушунчалари бўйича ҳимояланиш усуллар бўйича схема чизадилар ва балл тўплайдилар	Мавзунини қай даражада тушунганлигини текшириш
10д		Мусобақа натижаларини аниқлайди ва ғолиб гуруҳни эълон қилади	Тинглайдилар	Активлик
5д	Якуний	Дарсни якунлайди ва уйга вазифа беради.	Тинглайдилар ва вазифа бўйича тушунмаган саволларини сўрайди .	Вазифа бажариш натижасида мавзунини чуқурроқ ўрганиш

Энди мана шу тартиб бўйича дарснинг олиб борилиш кетма-кетлигини келтириб ўтайлик:

Дарс машғулотларини олиб боришда замонавий педагогик технологияларнинг услубларидан фойдаланиш натижасида фан ўқитувчисининг дарс жараёнидаги роли камайтирилиб, асосий эътибор аниқлаштирилган ўқув мақсадларига эришиш учун талабаларни фаоллаштиришга қаратилади.

Мазкур ишда, ўқитиладиган “Web да дастурлаш” фанининг “ Wordpress дастурини ўрнатиш” мавзусини янги педагогик технологиялар асосида ўқитишни дарс сценариясини ишлаб чиқамиз, дарснинг боришини автоматлаштириш технологияси ҳақида аниқ фикрлар билдирилади.


Ҳар қандай педагогик жараён энг аввало педагогик мақсадни, яъни педагог ва талабанинг ҳамкорликдаги фаолияти натижасини олдиндан тасаввур этишни аниқлашдан иборат.

Машғулоти жараёнида «таҳлилий фикрлаш» интерфаол усулидан фойдаланиш яхши натижалар бериб, у учта фаза асосида амалга оширилади: даъват, англаш, мулоҳаза. Улар бир бирини тўлдиради ва доим яхлит, мазмунан якунланган натижага олиб келади. Даъват босқичида «синквейн» стратегиясини қўллаб, талабалар фикрини бир жойга тўплаб олинади. Масалан таянч сўزلардан бири «тармоқ»ни таърифлаймиз:

1. сайт (нима? -от)
2. Саҳифали, гиперишоратли (қандай? -сифат)
3. кўринади, боғланади, узатилади (нима қилади? -фeъл)
4. Ишончли, тезкор, содда, қулай (ҳаёлингизга нима келди?)
5. web (синоними)

Англаш босқичида аввалги ва янги билимлар орасидаги боғлиқлик кузатилиб, бу босқич учун кластер усулини тавсия қилишимиз мумкин.

Бунда мавзуга тегишли асосий тушунчалар бўйича мия ҳужуми ўтказилади ва тўпланган ахборотларнинг ўзаро боғлиқликлари аниқланиб, гуруҳларга ажратилади, яъни туркумланади:



Мулоҳаза босқичини «Венн диаграммаси» стратегияси асосида амалга ошириш талабаларда турли тушунчаларни ўзига хос ва ҳар бири учун умумий бўлган белгиларини ёки хусусиятларини ажрата олиш орқали уларнинг фикрлаш қобилиятлари ривожлантирилади.

буйруқлари		
саҳифа	Умумий жихатлари	Сайт
-битта ойнадан иборат; -bookmark ташкил қилиш мумкин	Расм ва символларни намойиш қилади Ўзаро боғланиб ишлайди	Саҳифалар тўплами Гипершоратга эга бўлади Интернетда қўлланилади

Юқорида келтирилган таҳлилий фикрлаш босқичидаги топшириқлар гуруҳдаги талабаларни кичик гуруҳларга бўлингандан кейин берилади.

Ҳар бир гуруҳнинг фаоллиги ва топқирлиги машғулот сўнгида рағбатлантирилади. Мавзуга тегишли барча тушунчалар таҳлил этилгандан сўнг « Wordpress дастурини ўрнатиш ва унда ишлаш» талабаларга мустақил топшириқ сифатида топширилади. « Wordpress дастурини ўрнатиш ва унинг имкониятлари» мавзусини талабаларга тушунтириб чиқилгач, нималарга эътибор бериш кераклиги ҳақидаги талабалар фикри аниқланади ва умумлаштирилади. Энди талабалар олинган барча маълумотлар бўйича амалий ўтказишга тайёр ҳисобланадилар.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik texnologiya yutuqlaridan foydalanuvchi o`qituvchi, o`zi ko`nikib ketgan anchagina odatdagi ish usullaridan voz kechishi, shu bilan birga, pedagogik texnologiya imkoniyatlarini chuqur o`zlashtirib, undan o`quv jarayonida samarali foydalanish yo`llarini topish bo`yicha ijodiy izlanib borishi zarur.

Nimani baholash kerak ?

Nazariy bilimlarni ;

amaliy ko`nikma va ma`lakalarni ;

hulq atvor va shahsiy fazilatlarini .

Qachon baholash kerak?

Ta`lim jaroyoni boshida (Boshlang`ich baholash);

Ta`lim jaroyoni davimida (Joriy baholash);

Ta`lim jaroyoni yakunida (yakuniy baholash);

Baholashning asosiy hususiyatlari ;

Ta`lim maqsadiga yo`nalganlik ;

Muntazam o`qazib borish ;

Pedagogik , psixologik huquqiy ta`moillariga asoslanganlik ;

Umumiy qabul qilingan natija standartlariga asoslanganlik.

Ta`lim oluvchilarning bilimini baholash quyidagi besh balli tizim asosida olib boriladi:

“5” (a`lo) ball o`quvchining o`quv dasturi mazmunini chuqur vato`la egallab olgani , o`quv matiriyallarida nazariy va faktik jihatlarini ajrata bilgani , muataqil ravishda javob qila olgani, aytilgan ta`riflarni tishuntirishni izohlay olishi, shuningdek javobni to`g`ri uslubda va badiiy shaklda ekanligi uchun qo`yiladi. Javob ishonchli va behato bo`lgan holda.

“4” (yahshi) ball ham materialning mazmunini chuqur va to`la o`zlashtirgani uchun, o`rganilgan tushunchalarni, qoidalarni, ta`tiflarni to`g`ri bayon eta olish va isbotlay bilish malakasi uchun qo`yiladi. Lekin ta`lim oluvchi noaniqliklarga, javob mazmunida, shakl va uslubida ayrim hatolarga yo`l qo`ygan hollarda.

“3” (o`rta) ball ta`lim oluvchi o`quv materiallardagi asosiy qoidalar va bog`lanishlarni o`tganligi va tushunishni anglatadi.

Lekin tishunchalarni yetarli darajada chuqur egallab olmaganidan dalolat beradigan hatoliklarga yo`l qo`yadi, aytadigan fikrni bayon eta olmaydi. Javobida birlik yo`q bo`ladi. Ta`lim oluvchi odatda ta`lim beruvchining yordami bilan javob bergan hollarda.

“2” (yomon) ball ta`lim oluvchi sistemasiz tarqoq bilimlarga ega bo`lgi uchun qo`yiladi. U asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratmaydi, nazariy va faktik mazmunning bir-biridan farqini bilmaydi. Ta`lim oluvchi odatda yod olingan iboralarni takrorlaydi, bundan na uning o`zida va na ta`lim beruvchidaqanoatlanish hissi tug`ulmaydi. Bu bilimlarning shunday bir darajasiga dasturdagi materiallarni bundan keyigi o`rganilishini unga asoslanib tashkil etib bo`lmaydi. Bunday bilimlar aqliy rivojlanishiga kamdan kam yordam beradi.

“1” (juda yomon) ball qachonki, talim oluvchi dasturdagi materialni bilmagan va tushunmagan, mazmunda ko`plab qo`pol hatolarga yo`l qo`ygan hollarda qo`yiladi.

Mashg`ulot so`ngida o`qituvchi erishilgan natijalarni e`lon qilishi, dars jarayonini qisqacha tahlil etishi, aktiv o`quvchilarni rag`batlantirishi, uyga topshiriqlar berishi lozim. Uyga berilgan topshiriqlarni bajarish uchun kerakli tavsiya va ko`rsatmalar berilishi, albatta ular tabaqalashtirilishi zarur. SHundan so`ng mashg`ulot yakunlanadi.

Xulosa qilib aytganda, samarali o`tkazilgan dars mashg`uloti undan ko`zlangan maqsadlarga to`laqonli erishilishini va natijada talabalarda mustahkam bilimlar xosil bo`lishini kafolatlaydi.

Dars yakunlanadi

3-боб. Малака ошириш маркази динамик Web сайтини яратиш

3.1. Малака ошириш маркази сайти учун асосий маълумотларни шакллантириш

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 28 майдаги “Малакали педагог кадрлар тайёрлаш ҳамда ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларини шундай кадрлар билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштиришга оид чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-1761-сонли қарори асосида Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2012 йил 25 декабрдаги “Наманган муҳандислик педагогика институтида ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизими педагоглари малакасини ошириш ва қайта тайёрлашни ташкил этиш ҳақида”ги 505-сонли буйруқлари асосида педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш маркази ўз фаолиятини олиб бормоқда.

2016 йил 28 декабрдаги “Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари раҳбар ва педагог кадрлари малакасини ошириш ва қайта тайёрлашнинг 2017 йил режа кўрсаткичларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 356-сонли буйруғи ижро учун қабул қилинди ва Фарғона водийси вилоятлари ўрта махсус, касб-ҳунар таълими бошқармалари билан биргаликда мутахассислик йўналишлари бўйича 2017 йил учун шартномалар тузилди. Қайта тайёрлаш ва малака ошириш йўналишларига тингловчилар контингенти аниқланди ва йиллик қабул режа жадваллари тасдиқланди.

Марказнинг мақсади меҳнат бозори, шахс, давлат ва жамиятнинг ўзгарувчан эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда тегишли касбий фаолият кўрсатиш учун кадрларнинг маданий-маърифий, ижтимоий-иқтисодий ва касбий билим, кўникма ва малакаларини оширишдан иборат.

Кўзланган мақсадга мувофиқ марказ олдида қуйидаги вазифалар қўйилади:

- Наманган муҳандислик-педагогика институти салоҳияти ва имкониятларидан келиб чиқиб қайта тайёрлаш ва малака ошириш таълим йўналишларини белгилаш;
- қайта тайёрлаш ва малака ошириш таълим йўналишлари бўйича маркетинг изланишлари ўтказиш, истиқболли ва жорий режаларни ишлаб чиқиш;
- қайта тайёрлаш ва малака оширишга қўйилган Давлат талабларига мувофиқ таълим йўналишлари бўйича малака оширувчи (қайта тайёргарликдан ўтувчи) педагогнинг билим ва кўникмаларига қўйиладиган талабларни шакллантириш, улар асосида ўқув режа ва дастурларни ишлаб чиқиш ҳамда белгиланган тартибда тасдиққа киритиш;
- қайта тайёрлаш ва малака оширишга замонавий педагогик ва ахборот технологияларини жорий этиш;
- тингловчилар учун зарурий ўқув-услубий қўлланмалар, дидактик воситалар ва тарқатма материаллар ишлаб чиқиш;
- тингловчилар билимини мунтазам ва якуний назорат қилиш ва баҳолашнинг холис ва тезкор усулларини ишлаб чиқиш ва қўллаш;
- педагогик фаолиятга юқори малакали, етарли (камида 5 йил) иш стажига эга бўлган педагог ва мутахассисларни жалб қилиш;
- тингловчилар учун зарурий шароитлар яратиш;
- таълим хизматлари кўрсатиш орқали бюджетдан ташқари маблағлар топишни йўлга қўйиш;
- кадрларни қайта тайёрлаш ва малака ошириш тизими ва услубиётини такомиллаштириш ҳамда янги технологияларини ишлаб чиқишга бағишланган илмий-услубий тадқиқотлар ўтказиш.

Марказ тингловчилари

Марказга тингловчилар таълим муассасалари билан имзоланган шартномалар асосида тасдиқланган йиллик режада кўрсатилган муддатларда йўлланмалар орқали юборилган педагог кадрлар ёки педагогнинг шахсий аризасига кўра Наманган муҳандислик-педагогика институти ректори буйруғи билан тегишли таълим тури ва йўналиши гуруҳига қабул қилинади.

Марказ тингловчиларни қабул қилишда ўқув жараёнига зарурий қўшимча ва тузатишлар киритишга қаратилган сўровлар ва тестлар ўтказилиши мумкин.

Марказ тингловчиларининг ҳуқуқ ва вазифалари мазкур Низом ва ички тартиб қоидалари билан белгиланади.

Марказ тингловчилари зиммасига:

- режада белгиланган кундан кечикмай кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш марказига етиб келиш;
- дарс жадвалига мувофиқ барча машғулотларга қатнашиш;
- мустақил иш бўйича вазифаларни кўрсатилган муддатларда бажариш;
- жорий, оралиқ ва якуний назоратларда кўзда тутилган синовларни топшириш;
- компьютер техникаси, кўргазмали қурооллар ва бошқа техник воситалардан авайлаб фойдаланиш ҳамда техника ҳавфсизлик қоидаларига риоя қилиш;
- таълим жараёни сифати ва самарадорлигини кўтаришга қаратилган ташаббускорлик кўрсатиш масъулиятлари юклатилади.

Марказ тингловчилари:

- ўқув режага киритилган фанлар бўйича ўқув – услубий адабиётларни талаб қилиш;
- маълум фанлар ёки курслар бўйича педагогни алмаштириш ҳақида асосли таклифлар киритиш;
- мустақил ишларни бажариш мақсадида қўшимча консультациялар талаб қилиш;
- қўшимча равишда фан ва курслар таклиф қилиш ҳуқуқига эга;

Узрсиз сабабларга кўра машғулот ва синовларга қатнашмаган тингловчилар Марказ директори тақдимномасига мувофиқ Наманган муҳандислик-педагогика институти ректори буйруғи билан тингловчилар сафидан чиқарилади ва бу ҳақда у ишлаётган таълим муассасасига хабар берилади.

Малака ошириш ўқув режалари ва дастурларида белгиланган якуний назорат натижасида қониқарсиз баҳоланган тингловчиларга малака ошириш сертификати ёки қайта тайёрлаш дипломи ўрнига ўқув курсини тугатганлиги тўғрисида маълумотнома берилади.

Малака ошириш ва қайта тайёрлаш мақсадида ходимни ишдан озод қилиш шартлари, шунингдек, мазкур давр учун кафолатланган тўловлар миқдори жамоа шартномасида белгилаб қўйилади, лекин ушбу тўлов ўртача иш ҳақидан кам бўлмаслиги шарт.

Марказ бошқа жойлардан келган тингловчиларни ўқиш даврида вақтинча турар жой билан таъминлайди.

Марказ тузилмаси

Марказ тузилмаси тингловчилар сонидан келиб чиқиб, тегишли меъёрий ҳужжатлар асосида белгиланади.

Марказ директори Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги билан келишилган ҳолда институт ректори томонидан тайинланади. Унинг ходимлари Марказ директори тавсиясига кўра институт ректори томонидан тайинланади.

Марказ фаолиятига умумий раҳбарлик Наманган муҳандислик-педагогика институти Илмий кенгаши томонидан амалга оширилади.

Марказда сиёсий партиялар, ижтимоий-сиёсий уюшмалар ва диний ташкилотларнинг фаолият олиб боришига йўл қўйилмайди.

Марказ ходимлари ва профессор-ўқитувчилари таркиби

Марказ профессор-ўқитувчилари штат бирликлари сони тингловчилар сонига мутаносиб равишда белгиланган меъёрлар даражасида, ходимлар штат бирликлари эса, «Педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларни малакасини ошириш таълим муассасаларидаги маъмурий, техник ва ҳизмат кўрсатувчи ходимларнинг Намунавий штат бирликлари»га асосан белгиланади.

Марказ профессор-ўқитувчиларининг таркибини шакллантиришда уларнинг амалий иш тажрибасини, касбий маҳорати, тегишли таълим тури учун мавжуд Давлат таълим стандартлари ёки Давлат талабларининг моҳиятини чуқур билиши ва уларни тингловчилар онгига етказа олиш қобилияти ҳисобга олинади.

Наманган муҳандислик-педагогика институти кафедраларидаги, ҳудудда жойлашган бошқа олий таълим ва илмий муассасалар илмий – педагогик кадрлар салоҳиятидан иборат педагогик жамоа ташкил этилади. Улар соатбай иш ҳақи тўлаш шarti билан Марказга жалб қилинади.

Марказ маъмурияти зиммасига қуйидаги вазифалар юклатилади:

- ўрта махсус, касб-ҳунар таълим муассасалари ҳудудий бошқармалари билан ҳар йилга қайта тайёрлаш ва малака ошириш бўйича шартномалар тузиш;

- ҳар бир қайта тайёрлаш ва малака ошириш йўналиши учун ўқув режа ва фан дастурларини ишлаб чиқиш, ўқув-услубий кенгаш муҳокамасидан ўтказиш ва Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигига тасдиқлаш учун тақдим этиш;

- тасдиқланган ўқув режасига мувофиқ тузилган дарс жадвали асосида ўқув жараёнини тўлиқ ва сифатли амалга оширилишини таъминлаш ва назорат қилиб бориш;

- қайта тайёрлаш ва малака ошириш учун туманлар ва вилоятлардан келган тингловчиларни турар жой билан таъминлаш ва сифатли билим олишига барча шароитлар яратиб бериш;

- марказ тингловчиларини ўқитишнинг техник воситалари, ўқув-услубий адабиётлар ва тарқатма материаллар билан таъминлаш;

- маркетинг хизмати таклифларидан келиб чиққан ҳолда янги курсларни ташкил этиш.

Профессор – ўқитувчиларнинг вакант лавозимларга ишга қабул қилиш ва уларни эгаллаб турган лавозимларидан озод қилиш олий таълим муассасалари учун жорий этилган тартиб – қоидалар асосида амалга оширилади.

Марказга жалб қилинган профессор – ўқитувчиларнинг ўқув, илмий – услубий ва маънавий – маърифий ишлари уларнинг шахсий иш режаларида акс эттирилади, уларнинг ўқув юкламалари ўқув йили учун режалаштирилади. Малака оширишдаги таълим мазмунининг доимий ўзгарувчанлик ва янгиланувчанлик хусусияти профессор – ўқитувчиларнинг ўқув юкламаларини белгилашда ҳамда уларга соатбай иш ҳақи тўлашда инобатга олинади.

3.2. WEB сайтни яратиш бўйича алгоритм ишлаб чиқиш ва яратиш технологияси


Юқорида айтиб ўтилганидек, электрон қўлланмани яратишнинг умумий алгоритми сифатида куйидаги боскичларни келтириб ўтишимиз мумкин:

1. Яратиладиган Web саҳифа бўйича зарурий ахборотларни тўплаш.

Бу босқичда берилган мавзу бўйича зарурий ахборотлар тўпланади. Масалан: фаннинг давлат таълим стандарти, фан дастури, ишчи дастури, келандар режаси, маърузалар матни, дарс сценарийси, савол ва топшириқлар тўплами, мустахкамлаш тестлари, видеодарс ишланмалари, фойдаланиладиган адабиётлар рўйхати, дастурдан фойдаланиш бўйича кўрсатма хақидаги маълумотлар бўйича маълумот тўпланади. Бу маълумотларни Word редактори ёрдамида компьютерга киритиб, маълум бир форматга солинади. Шунингдек барча маълумотларни тайёрлаб олинган кейинги босқичга ўтилади.

Яратиладиган Web саҳифанинг умумий структурасини ҳосил қилиш.

Бу босқичда яратиладиган Web сайт учун шаблонларни тайёрланади. Бу шаблонларни саҳифани яратаётган дизайнер ҳамда программистнинг маҳорати билан ҳам боғлаш мумкин. Чунки, дастурий воситаларнинг ўзида ҳам махсус шаблонлар мавжуд бўлиб, бу шаблонлардан фойдаланиш ёки янги шаблон яратиш ҳам мумкин. Қуйида шаблон учун бир нечталарини фрейм ва жавалларни келтириб ўтайлик.



3. Саҳифага тегишли саҳифаларни ўзаро боғлаш.

Бу босқичда ҳар бир яратилган саҳифани бир-бири билан ўзаро боғлаб, саҳифа учун занжир ҳосил қилинади.

4. Саҳифага дизайн бериш бўлими.

Бу босқичда ҳар бир саҳифани дизайн жиҳатдан янада кучайтирилади, қўшимча безаклар берилади.

5. Яратилган Web саҳифани текшириш.

Бу бўлимда яратилган саҳифани назоратдан ўтказиб, ишлаш жараёни текширилади. Бу текширишнинг энг қулай усули бу саҳифани бошқа компьютерда ишлатиб кўриш ва ўзаро боғлиқлигини текшириб чиқиш ҳисобланади.

Namangan viloyat pedagog kadrlarni malakasini oshirish instituti WEB сайтини яратиш боскичлари асосида кетма-кет саҳифани яратишнинг умумий структурасини тайёрлаб оламиз. Демак, бизни яратмокчи бўлган саҳифамиз учун куйидаги маълумотлар лозим бўлади:

- институт фаолияти бўйича қисқача тарихи
- институт, унинг бугунги кунги ҳамда келгусида бажариш учун мўлжалланаётган режалар хақида
- институт низоми
- кафедралар
- бўлимлар
- фотогалерея

Бу маълумотлар бизга бошлангич ахборот булиб хизмат килади. Келтириб утилган номлар асосида биз саҳифани бўлимларга ажратамиз. Бу бўлимлар учун умумий бошқарувчи саҳифа мавжуд булиши керак. Демак, бошқарувчи саҳифа асосида умумий структурани куйидагича келтириб утиш мумкин:



Бу курилган схема саҳифанинг асосини ташкил килади. Бунда хар бир бўлимда, институт хақидаги барча маълумотлар тулик келтириб утилади.

институт тарихи бўлими учун алоҳида саҳифа яратамиз ва бу саҳифада институтнинг шу кунга қадар тарихини ифодаловчи саҳифани расмлар билан бирга яратамиз.

Институт раҳбарияти хақида бўлимида эса, раҳбар мутахассислар хақида маълумот берувчи саҳифа яратамиз.

Таълим тизими бўлимида эса, утиладиган фанлар, институтнинг структураси хақида маълумотларни берувчи саҳифани хосил киламиз.

Фотогалерея бўлимида эса, институтнинг шу кундаги фаолият бўйича турли хил расмлар асосида маълумот берувчи саҳифани хосил киламиз.

Низом булимида институтнинг укув ишлари, тарбиявий ишлари, маънавий ишлари, халқаро ҳамкорликлари хақида маълумот берувчи саҳифани яратамиз.

3.3. Яратилган сайтдан фойдаланиш бўйича йўриқнома ишлаб чиқиш

Биз битирув малакавий ишини бажариш жараенида Наманган вилояти Халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институтининг динамик сайтини яратиш масаласини қараб, уни яратишга эришдик. Бунинг учун маълумотлар базаси билан ишловчи дастурий воситалардан бири хатрр дастури ва динамик сайтларни яратишда фойдаланиладиган дастурлардан бири wordpress дастуридан фойдаландик. Дастурни ишга тушириш учун аввал хатрр дастурини ишга туширамыз ва уни активлаштирамыз. Дастур активлашганидан сўнг, браузер ойнасидан localhost/NamMOI.uz саҳифасини ишга туширамыз. Экранда 3.3.1-расмда келтириб ўтилган сайтнинг бош кўриниши ҳосил бўлди. Бу ойна асосий бошқарувчи ойналардан бири бўлиб, унинг ўнг томнидан бир нечта гиперишоратга асосланган саҳифаларнинг номлари келтириб ўтилади.

Айтайлик, “Бўлимлар” гиперишорати устида сичқонча тугмасини боссак, экранда 3.3.2-расмда келтириб ўтилган саҳифа ойнаси ҳосил бўлади. Шундан сўнг, институт девонхонасига тегишли маълумотларни очиб учун “Девонхона” ишорати устида сичқонча тугмасини босамиз. Экранда 3.3.3-расмда келтириб ўтилган саҳифа ойнаси ҳосил бўлади.

Шунингдек, институтдаги мавжуд кафедралар ҳақидаги маълумотларни олиш учун “Кафедралар” ишорат устида сичқонча тугмасини босамиз. Экранда эса, 3.3.34-расмда келтириб ўтилган саҳифа пайдо бўлади.

Институтда ўтказилган турли хил тадбирлар ҳамда шу институтда фаолият юритаётган ходимлар ҳақида маълумотлар берувчи фотогалереяни очиш учун “Фотолавҳалар” гиперишорати устида сичқонча тугмасини босишимиз етарли бўлади. Ўз навбатида 3.3.5-3.3.15-расмда ҳам шу институтга тегишли маълумотларни олиш ҳамда улардан фойдаланиш имконини берувчи саҳифалар келтириб ўтилади. 3.3.16-расмда эса, динамик сайтни яратувчи муаллиф ҳақидаги маълумотлар келтириб ўтилади.

Дастур ишини якунлаб ундан чиқиш учун экраннинг юқори ўнг бурчагидаги “X” белгини босиш етарли бўлади.

4-боб. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги

4.1. CMSлар ёрдамида Web динамик сайтларни яратишда техника хавфсизлиги коидалари

Кейинги пайтларда юртимиз коллежларида укувчиларни назарий методик савиясини такомиллаштириш, кургазмали куроллар ва техника воситалари билан таъминлаш ишларига катта эътибор берилмоқда. Бу эса нафакат укутувчилардан, балки укувчилардан ҳам уз устида ишлашни, янги педагогик технологияни урганишни талаб килмоқда.

Хозирги кунда коллежларда дарс беришда компьютер тармоклари, модем, электрон почта ва телефондан кенг фойдаланилмоқда.

Шундай экан коллежларда информатика фанидан дарс утишда, аввало меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлигини ташкил этиш лозим. Бунда куйидаги коидаларга укувчилар катъий риоя этишлари лозим:

- Укутувчи рухсатисиз курилмаларни манбага улаш ва учуриш;
- Манбага уланган ХТ воситаларини каровсиз колдириш;
- Харакатдаги механизмлар (принтер, дисковод, сканер ва хоказолар)га укутувчининг рухсатисиз тегиш;
- Корпуси бузилган ХТ воситалари ёки изоляцияси бузилган утказгичлар билан ишлаш⁴
- Халатсиз ишлаш;
- Хул кул ва нам кийим билан ХТ курилмаларидан фойдаланиш.

Шуни ҳам кушимча килиш мумкинки, компьютер давр мужизасидир, лекин, у бегубор уйинчок эмас. Чунки, сиз 60 Гц частотали узгарувчан электромагнит майдонлиэлектрон кузгу рупарасида турибсиз.

Бу майдонда меъёрдан ортик булишлик бир катор касалликларни келтириб чиқаради, жумладан, куз катаракти, рак шишмалари, иммунларни пасайиши ва бошка хилдаги касалликларни келтириб чиқариши мумкин.

Хисоблаш техникаси курилмалари билан тугри муносабатда булиш ва фойдаланишда кулай ва хавфсиз усулларини куллаш учун хавфсизлик техникаси, меҳнат гигиенаси ва санитарияси талабларини моҳиятини тушунтириш. Меҳнат интизоми, хавфсизлик техникаси, жараёнида учраши мумкин булган кулгилсиз ҳолатлар ва улар таъсиридан сақланиш усуллари билан таништириш.

Иш бошлашдан олдин, иш даврида ва иш тамом булгандан кейинги талаблар билан таништириш ва ургатиш, ҳамда уни ташкил килиш тартибини ургатишдан иборат. Химоя кийимлари, химоя воситаларидан фойдаланиш ва уларнинг аҳамиятини тушинтириш. Ишни бажаришнинг хавфсиз усуллари ва воситаларидан фойдаланиш коидалари ва ходимларни бурч ва вазифалари, мажбуриятлари, бундан ташари хавфли ҳолат руй берганда қандай ҳаракат килиш тартиби билан таништириш. Тушунтириш ишларини утказган инженер-техник ходимлар исми фамилияси махсус журналга ёзиб борилади. Иш жойлари хонаси турли оғохлантирувчи белгилар билан жихозланган булиши керак.

Масалан: хисоблаш техникаси курилмаларини ишлатилаётганда хаво айланадиган туйникларини тусиб ёки ёпиб куйманг.

- курилма ва аппаратлар суюклик куйманг ва тукилишига йул куйманг;
- чанг, намлик, куёш нури тушишидан эҳтиёт килинг;
- магнит жисмларни яқинлаштирманг;
- электр манбага уловчи кабелларни оёк остида, стол ва стул остида колдирманг;
- приборларни тугридан-тугри улаш ёки узиш мумкин эмас, кетма-кетлик улаш ва узиш коидаларига риоя килинг ва хоказолар.

Хисоблаш техникасида тугри ва аниқ маълумот олиш учун дискетларни эҳтиёт килиш буйича куйидаги оғохлантирувчи белгилар билан жихозлаш зарур;

- магнитли катламга кул тегизманг;
- дискетни магнитли жисмга яқинлаштирманг;

- дискетни 10-600С хароратли мухитда сакланг;
- химояловчи тусикни бехуда силжитманг;
- дискетни дисководга эхтиёткорлик билан белгиланган талаби буйича жойлаштиринг;
- дискетни турли механик ва ташки таъсиридан сакланг.

Хавфсизлик техникаси юзасидан тушунтириш утказилганлиги хақида маълумот.

	Ходимнинг исми ва шарифи	Инструктаж ёки курсатмадан утказилган сана	Курсатма ёки инс-труктажни қискача мазмуни	Имзо
	2	3	4	5

4.2. Амалий машғулот дарсларида компьютерлардан фойдаланиш қоидалари

Компьютер хоналарида меҳнат шaroitlarini tugri tashkil etish joyini tashkil etilishi Kompyuter xonalarida ish joyi to`g`ri tashkil etilishi ish unumdorligini oshirish, charchashni oldini olish, ish joyidagi jixozlarni va uskunalarni to`g`ri joylashtirishni omillar, ranglarni to`g`ri tanlay bilishdir. Uskunalar shunday joylashishi kerakki ishchilar ortiqcha xarakatsiz, o`zini zo`riqtirmasdan osongina foydalanish.

Ish joyida mehnat sharoitini yaxshilash ishlariga bir qancha omillarni hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Bularga tashkiliy, texnikaviy, sanitariya –gigiena, tabiiy-iqlim omillari kiradi. Tashkiliy omillar –ishning tashkil etish shakli intizom, mehnat jaraeni ustidan qilinadigan nazoratning holati, mehnat muhofazasi, ishchi xodimlarning kasbiy tayergarlik darajasi, texnik omillar jaraenlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish darajasi, boshqaruvda elektron– hisoblash texnikalarida kompyuterlarni qo`llash, himoyalash vositalarining sozligi va yetarligi kiradi.

Sanitariya-gigiena omillari -ish joyining sanitariya holatiga javob berish-bermasligi, ergonomik omil mashina va uskunalarni inson bilan o`zaro harakatda bo`lganda mashina elementlarining mos kelishi. Bunda texnikani tezlik parametrlariga tegishli, ishchi organlaridan kelaetgan ma`lumotlar xajmi, ish joyining tashkil etilish darajasi, boshqarish organlarining qulay joylashganligi operator o`rindig`ining konstruksiyasi kiradi. Psixofiziologik omillar-mehnatning og`irligi va qizg`inligi, jamoadagi psixologik vaziyat, ishchilarning bir-biri bilan o`zaro munosabati, jismoniy zo`riqish, asabiy-psixik zo`riqishlash mehnat sharoitining inson organizmiga ta`siri o`rgangan holda quyidagilarni amalga oshirish kerak:

-ishda bajarilaetgan jaraenlar tez va tez talablar chegarasida va harakatlantiruvchi maydonning eng qulay doirasida amalga oshirish:

-ishlab chiqarish binolarida havo muhitini tekshirish; -ishlab chiqarishdagi metrologik omillarini aniqlash;

-mahalliy va umumiy titrashni aniqlash;

-ishlab chiqarishdagi shovqin darajasini aniqlash;

-ish joyininig eritilganligini aniqlash;

-nurlanganlikni tekshirish;

-havo almashuvini tekshirish.

Kompyuter xonalarida ishlaganda mehnat sharoitlarini yaratishdagi eng ko`p ko`yiladigan xatolarga quyidagilar kiradi: 1. Ish joylarni yetarlicha katta emasligi. 2. Xona harorati va namligi talab kilinadigan me`rlarga mos kelmasligi. 3. Xona va ish joylarni yetarlicha eritilmaganligi. 4. Monitordan chiqaetgan past chastotali elktromagnitni maydonida nurlanishning ko`p darajada ajralishi. 5. Ish vaqtini va dam olish vaqtlarini to`g`ri taqsimlanganligi.

Kompyuter operatorlari, dasturchilar va boshqa hisoblash texnikasi ishchilari shovqin, elektr toki, statik elektr kabi fizik, xafli va zararli fizik omillar ta`sirida bo`ladi. Ko`pgina hisoblash texnikasi bilan ishlovchi hodimlar aqliy zo`riqish, ko`rish va eshitish analizatorlarini zo`riqishi, emosional zo`riqish kabi psixofizik omillar ta`sirida bo`ladilar. Toliqish paydo bo`lishi ish paytida markaziy asab tizimida paydo bo`ladigan o`zgarishlarga bog`liq. Masalan kuchli shovqin rang ajratishni kiyinlashtiradi, kurish o`tkairligi, erug`likka moslashishni pasaytiradi, axborot qabul qilishni qiyinlashtiradi va 5-12 foizga ish unumini pasaytiradi. 90 DB shovqinni uzoq vaqt davomidagi ta`siri ish unumdorligini 30-60 foizga pasaytiradi.

Hisoblash texnikasi bilan ishlovchi ishchilar tibbiy tekshiruvdan o`tkazilganda ish unumdorligi pasayishdan tashqari shovqin eshitish qobiliyatini xam pasaytiradi. Kombinasiyalashgan zararli omillar ta`sirida ko`p vakt qolish kasbiy kasallanishga olib kelishi mumkin. Elektr qurilmalari ya`ni kompyuterning barcha qurilmalari inson uchun xafli hisoblanadi. CHunki kompyuterda ishlaetganda inson tok kuchlanishi ta`sirida bo`lgan qismlarga tegib ketishi mumkin. Elektr qurilmalarning spesifik

xavfi: bu elektr o'tkazuvchilar, izolyasiyasi shikastlanishi natijasida tok ta'siriga tushib qolgan kompyuter korpusi Elektr tokining ta'siri faqat tok inson tanasidan o'tganda seziladi. Elektr shikastlanishidan himoyalashda elektr qurilmalari to'g'ri joylashtirilishi, elektr o'tkazuvchi sim va kabellarni to'g'ri ulanishi muxim o'rin egallaydi.

Ish joylarida statik elektrning razryadli toki ko'proq kompyuterning biror bir elementiga tegib ketish natijasida xosil buladi. Bunday razryadlar insonga xavf tug'dirmaydi, e'qimsiz ta'sirdan tashqari kompyuterni ishdan chiqishiga olib keladi. Simlar izolyasiyasi shikastlanganda tok ta'sirini kamaytirish uchun ish xonalarining pollari bir qavatli polivinil xloridli antistatik linolium bilan qoplanishi lozim. Himoyalashni boshqa usuli ionlashtirilgan gaz bilan zaryadlarni neytrallash. Kompyuter xonalarining kattaligi u yerda ishlovchi xodimlar va kompyuterlar soniga mos kelishi zarur. Ish joylarini tashkillashtirishga, yana xarorat, e'rug'lik, havo tozaligi, shoviqindan himoyalanganlik parametrlari hisobga olinadi.

Sanitar me'èrlariga ko'ra bir ishchi uchun ish joyining xajmi 15 m³ , ish maydoni esa 4,5 m² dan kam bulmasligi kerak. Xonaning balandligi poldan shiftgacha 3-3,5 m bulishi kerak. Kompyuter xonalarida odatda e'n tomonlama tabiiy e'ritilganlik qo'llaniladi. Tabiiy e'ritilganlikda shimol e'ki shimoliy-sharqqa qaratilgan 48 e'rug'lik darchalaridan foydalanish kerak, bunda tabiiy e'ritilganlik koefisenti 1,2-1,5 % kam bo'lmasligi shart. Kompyuterlarni podvallarda joylashtirish ruxsat etilmaydi. Kompyuter xonalari va ish joylarida tabiiy e'ritilganlik qo'llanishi zarur. Boshqa xollarda esa sun'iy e'ritilganlikni qo'llash mumkin. Ish xujjatlari joylashgan stol usti e'ritilganligi 300-500 lk bulishi kerak. YORug'lik manbaini shunday joylashtirish kerakki, bunda e'rug'lik ko'zni qamashtirmasligi kerak, ko'rish maydonidagi e'rug'lik manbaining e'rqinligi 200 kd /m² oshmasligi kerak.

Kompyuter joyini shunday joylashtirish kerakki, bunda tabiiy e'rug'lik iloji boricha e'ndan tushishi lozim. Kompyuter stolining balandligi iloji boricha 680-800 mm bulishi kerak. Ish stoli o'eklar uchun balandligi 600 mm, eni 500 mm dan kam bo'lman, chuqurligi tizza darajasida 450 mm dan kam bo'lmasligi, uzatilgan o'e'q darajasida 650 mm dan kam bo'lmasligi kerak. Ekran monitori ko'zdan eng uzog'i bilan 600-700 mm bo'lishi kerak, lekin xarf va shriftlarning o'lchamiga qarab 500 mm dan yaqin bo'lmasligi kerak. Xonalarni rangli jihozlanishi ishni sanitar-gigiena sharoitlarini yaxshilashga qaratiladi, ish unumini oshishiga hizmat qiladi. Xonalarni bo'yalishi inson asab tizimlari, kayfiyatiga va oxir-oqibat ish unumiga ta'sir etadi. Kompyuter xonalarini rangini texnik jihozlar rangi bilan bir xil rangda bo'yash maqsadga muvofik. Xonalar va jihozlar ranglari yumshoq bo'lishi va yaltiroq bo'lmasligi lozim.

Хулоса

Men ushbu bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va yozish jarayonida НамМПИ қошидаги Малака ошириш ва қайта тайёрлаш марказининг динамик Веб сайтини яратиш ва уни касб-та'лими yo`nalishidagi talabalarga yaratish bo`yicha talabalarga bilim berish uchun dars ishlanmalaridan foydalanib dars samaradorligini oshirishga erishish mumkinligini o`z ishimni bajarish jarayoni ko`rib o`tdim.

Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисида»ги қонунда ўқув жараёнига илғор педагогик технологияларни жорий этиш мамлакатимиз таълим тизимини ислоҳ қилишнинг асосий кўрсаткичларидан бири сифатида эътироф этилиши бежиз эмас. Чунки, педагогик технология таълим жараёнини инқироздан ҳоли этиш, уни бозор иқтисоди шароитига мос ҳолда такомиллаштириш ва Давлат таълим стандарти талабларига мувофиқ кадрлар тайёрлашнинг муҳим омилларидан бири бўлиб ҳисобланади.

Мамлакатимиз Президенти Ислон Каримов таъкидлаганларидек, «Энг янги замонавий ўқув воситалари билан таъминланган коллежларда эскидан қолган ўқитиш услубларининг давом этишига мутлақо йўл қўйиб бўлмайди».

SHuningdek, talabalarga doimiy ravishda bilim berib borishda elektron sahifalarni yaratish va ulardan o`quv jarayonida foydalanish lozimligi, shuningdek dasturni yanada takomillashtirish va yangi loyixalarini yaratish bo`yicha zaruriy tasavvurlarni oldim.

SHuningdek, bitiruv malakaviy ishimni bajarish jarayonida quyidagi masalalarni hal qilindi:

- Internet tarmog`i uchun Web-saytlarni yaratish, ularga qo`yiladigan asosiy talablar va ularning tahlili
- Interfaol muloqatli internet axborot ashlari
- Web sahifa yaratish uchun qo`yiladigan talablar
- Maummoning qo`yilishi va uning amaliy ahamiyati
- Kasb-hunar kollejini saytini yaratish bo`yicha boshlang`ich ma`lumotlarni shakllantirish va umumiy strukturani ishlab chiqish
- Axborot texnologiyalari asosida elektron Web sahifalarni yaratish bosqichlari xakida
- “Web sayt yaratish” mavzusini o`qitishni amaliy dars ssenariysini ishlab chiqish
- Uchqo`rg`on Pedagogika kollejining dinamik Web saytini yaratish
- WEB sahifani yaratish texnologiyasi
- O`rgatuvchi elektron qo`llanmalarni yaratishda texnika xavfsizligi qoidalari
- Hayot faoliyati xavfsizligi masalasi bo`yicha ham kompyuter bilan ishlaganda texnika xavfsizligi koidalari rioya qilish bo`yicha tavsiyalar ishlab chiqildi;
- Yaratilgan elektron dastur matnini tayyorlash ishlari amalga oshildi.

Yuqorida keltirib utilgan Uchqo`rg`on Pedagogika kollejining dinamik Web saytidan talabalar, maxsus kurslarda ukiyotgan mustakil urganuvchilar, xamda kasb-xunar kollejarining o`qituvchilari va ukuvchilari hamda barcha internet tarmog`iga ulangan foydalanuvchilar ochishlari va foydalanishlari mumkin.

Kelgusida bu ishlarimni davom ettirib, zamonaviy yangi pedagogik texnologiyalar asosida o`quvchilarga bilim berish uchun albbatta turli xil fanlardan elektron sahifalar, elektron qo`llanmalar, uslubiy ko`rsatmalar yaratib, talabalarining bilimini yanada mustahkam bo`lishida o`zimni olgan bilimlarim bilan javob berishga harakat qilaman.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Олий ва урта махсус таълим вазирлиги. Ўзбекистон Республикаси ҳалқ таълими вазирлиги, Ўзбекистон Республикаси Давлат матбуот кумитаси томонидан яратилган «Ўзлуксиз таълим тизими учун укув адабиётларининг янги авлодини яратиш» концепцияси.
2. В.А. Каймин, Б.С. Касаев. «Информатика: практикум на ЭВМ» Учебное пособие. Москва «Инфра – М» 2001.
3. Paul Andrew. 50 Free Books for Web Designers & Developers, 2015
4. Jeremy Saenz, Building Web Apps with Go, 2015
5. Xavier Morera. Apache Solr Succinctly, 2015
6. Easy Readers, Adaptive Web Design, 2011
7. A.R.Maraximov, S. I. Raxmonqulova «Internet va undan foydalanish asoslari». Toshkent-2001. O`quv qo`llanma.
8. Kiting D J. Flesh MX iskusstvo sozdatie WEB -saytov, Moskva, 2002, O`quv qo`llanma.
9. Stefan Kox (Stefan Koch). Vvedenie v JavaScript dlya Maga. 1997.
10. «Uchebniki i spravочно`y material po web-texnologiyam». Elektronno`y uchebnik.
11. Вайнам Л, Вайнам В, Динамический HTML. Диасофт 2001
12. Ғуломов С. С. ва бошқалар. Ахборот тизимлари ва технологиялари: Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик /Академик С. С. Ғуломовнинг умумий таҳрири остида.—Т.: «Шарқ», 2000.-592 б.
13. Д. Кирсанов. Веб-дизайн. -СПб: Символ-Плюс,2001.
14. Сайидахмедов Н. Ўқитувчи фаолиятининг технологияланувчанлиги. // Халқ таълими. 1999. № 5, 80-83б.
15. Қ. Ишматов ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСЛАРИ (Илғор педагогик технологиялар) Ўқув қўлланма Наманган-2003
16. Кларин М. В. Педагогическая технология в учебном процессе. М.: Знание. 1989. – 80с.
17. Н.Гайбуллаев, К.Тошмуродова «Педогогика» маърузалар матни, Тошкент-2000 йил
18. Р.Мавлонова, О.Тўраева, К.Холикбердиев «Педогогика» Тошкент «Уқитувчи» 2001 йил
19. З.К.Исмаилова «Педогогикадан амалий машғулотлар» Тошкент «Фан» 2001 йил
20. Н.И.Макиенко «Хунар-Техника таълими билим юртларида педогогик процесс» «Уқитувчи» нашриёти Тошкент-1979 йил
21. У.Ю.Юлдашев, Р.Р.Бокиев, Ф.М.Зокирова «Информатика» Тошкент-2002 йил
22. « Иқтисодиёт илми асослари », С. Ғуломов, А. Абдуллаев, А. Сотволдиев, Тошкент, «Молия», 2002 йил
23. « Иқтисодиёт илми асослари », С. Ғуломов, А. Абдуллаев, А. Сотволдиев, Тошкент, « Молия », 2002 йил.
24. И.Холлиев, А.Икромов «Экология» (касб-хунар коллежлари учун) Тошкент «Мехнат» - 2001 йил
25. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Тошкент, 1992 й.
26. К.Ё.Ёрматов ва бошқалар. Ҳаёт фаолияти ҳавфсизлиги. Маърузалар матнлари, Тошкент, 2000 й.
27. Ш.К.Маҳмудова. Касб касалликлари. Т. 1996 й.
28. www. Ziyonet.uz
29. http: //www//uralrti/ru.
30. www.referat.ru
31. vlibrary.freenet.uz
32. www.intuit.ru
33. bankreferatov.ru
34. www.borland.com
35. www.intuit.ru

Илова